

ISSN:  
2181-3027

58

Volume-58 Issue-2 May - 2024



# PEDAGOGS

International research journal



**PEDAGOGLAR.UZ**

*Scientific Research Center*

# PEDAGOGS

*Legal, medical, social, scientific journal*

**Volume-58**

**Issue-2**

**May – 2024**

**IN ALL AREAS**



## TAHRIRIYAT | EDITORIAL

**Editor in chief**

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

**Executive Secretary**

Abdurahmonov Boburjon

*He is mathematic teacher at  
Uzbekistan District 49 Secondary School*

**Preparing for publishing**

Kholikov Tokhirjon Shavkatjon ugli  
CODEMI academy teacher

**Bosh muharrir**

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

**Mas'ul kotib**

Abdurahmonov Boburjon

*O'zbekiston tumani 49-umumiy o'rta  
ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi*

**Nashrga tayyorlovchi**

Xoliqov Toxirjon Shavkatjon o'g'li  
CODEMI akademiyasi o'qituvchi

## TAHRIRIYAT KENGASH A'ZOLARI | EDITORIAL BOARD MEMBERS

***Inobatxot Mirzaraximova****Rishton tuman XTB mudiri****Umida Barzieva****Farg'ona viloyat xalq ta'limi boshqarma metodisti****O'rinov Ahmadjon Qo'shaqovich****Farg'ona Davlat Universiteti, Matematika fanlari doktori, professor****Toshboltayev Muhammadjon****Toshkent mashinasozlik institute, Texnika fanlari doktori, Professor****Qodirov Nabijon O'lmasovich****O'zbekiston xalq ustasi, (usta kulol)****Turdiyev Azizbek Anvarovich****O'zbekiston madaniyat va san'at vazirligi, journalist****Ne'madaliyev A'zam Muhammadjonovich****Cyberlayn firmasi asoschisi, iqtisod fanlari nomzodi, PhD****Mohinur Saidova****Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent****Sharifaxon Xakimova****Farg'ona tumani 4-maktab matematika fani o'qituvchisi*

## TAHRIRIYAT MANZILI | EDITORIAL ADDRESS

UZB: 712000. *Farg'ona viloyati, Rishton shahri, Istirohat bog'i ko'chasi 24-uy*  
[www.pedagogs.uz](http://www.pedagogs.uz), E-mail: [info@pedagoglar.uz](mailto:info@pedagoglar.uz) Tel: +998 90 905-14-30

ENG: 712000. *Fergana region, Rishtan city, Park park street 24*  
[www.pedagogs.uz](http://www.pedagogs.uz), E-mail: [info@pedagoglar.uz](mailto:info@pedagoglar.uz) Tel: +998 90 905-14-30

## SELF-CONTROL WHEN EXERCISING KICKBOXING SPORTS

***Abdumutalipov Asilbek Bahodirovich***

*Teacher of the department*

*Combat and Physical Training Academy of the*

*Ministry of Internal Affairs*

*e-mail: [akrom.mir1988@gmail.com](mailto:akrom.mir1988@gmail.com)*

**Abstract:** Self-control is a form of control over the state of health, physical development and subjective and objective indicators of the state of the body engaged in physical exercises related to the sport of kickboxing, using simple and convenient techniques. The results of self-monitoring are considered an addition to the results of medical control. Self-control Helps students to identify the negative effects of exercise on the body in a timely manner.

**Keywords:** *kickboxing, physical exercises, Physical development, self-control, physical qualities.*

All results are recorded in a self-control diary and must always be analyzed. Based on the state of health, indicators of tests and tests, it makes it possible to plan the processes of physical fitness. Self-control tests can be of 10-20-hil form. The types of controls can be selected according to the types of exercise or sports activities. When practicing cyclic sports, it will be advisable to carry out tests for assessment of YUUS, blood arterial pressure, ulcers, endurance. When performing exercises on trainers, however, it is also necessary to control changes in body weight and the development of strength qualities.

The results of self-control are divided into subjective and objective indicators. Subjective indicators can include self-esteem, mood, sleep, appetite, ability to work physically and mentally, pain sensations. Objective indicators include indicators of physical development, functional state of the body, number and quantity of physical training levels. These indicators are indicators of YUUS, oat, blood arterial pressure, respiratory frequency, body weight, anthropometric oat, as well as physical fitness assessment test tests.

Taking into account subjective indicators: after physical education and sports training, it is necessary to feel good, refreshed, to be in a high mood, there should be no head and other pain, there should be no relaxation and exhaustion. When discomfort is felt in the body – it is recommended to stop training in case of numbness, drowsiness, irritability, pain in the muscles. Mantazam in those who are engaged in exercise and sports, sleep should be good, clear and quiet. The inability to sleep well and nighttime restlessness can be seen from the fact that the physical loads on the person involved are not in accordance with the level of physical fitness. After training, the appetite should be good. Properly organized training has an effect on improving performance. It is recommended to reduce the effect of physical loads on mood drops, sleep disorders and loss of appetite. The pain that occurs when exercising can be caused by injuries, multiple seizures, or illnesses. Pain can occur in the muscles, in the area of the heart

and liver, in the head. Training should be stopped temporarily when rapid pain occurs. It is especially important to be attentive when pain or inhospitable sensations occur in the heart area.

Taking into account objective indicators: determination of the number of heartbeats YUUS and blood arterial pressure AB. Physical loads have a negligible effect on the functioning of the cardiovascular system in comparison with other organs. To study changes in the vascular system of the heart under the influence of physical loads, the number of heartbeats is measured in YUUS and blood arterial pressure AB. In practice, these techniques are widely used for the convenience and ease of inspection conditions and for the accuracy of the results obtained.

At the same time, YUUS is determined 5 minutes before training and at the end of training. If, at all times, after training, the YUUS is well restored, the development of functional capabilities of the body indicates that it is in a positive way. When acute changes are observed in the body, it is considered a sign of exhaustion or changes in the cardiovascular system.

Arterial blood pressure can also provide complete information on the functioning of the cardiovascular system. Under the influence of physical loads, the systolic of the blood increases more, and the diastolic pressure increases slightly. When determining the body and blood arterial pressure, it is necessary to identify and study the causes of changes in these indicators under the influence of physical loads. Under the influence of small physical loads, 5-15 should be enough for the load and arterial pressure to recover to the initial indicator. Recovery processes after heavy physical loads take some time.

The purpose of the competition period of the training is to prepare for competitions and successfully participate in it. The main tasks of this period are to have a high level of training, to strengthen and improve technical and tactical actions even later, to expand the knowledge of tactics of conducting competitions, to strengthen, to achieve a high level of physical, Will and spiritual qualities, to expand theoretical knowledge.

At this stage, athletes, depending on their qualifications, participate in responsible competitions.

The transition period of training is characterized by a decrease in training nagruzka. The main tasks of the period: strengthening health and conditioning the body, increasing the level of general physical fitness.

Basic tools: sports games, swimming, etc. A properly structured transitional period provides favorable conditions for the development of the functional capabilities of the body even later, improving the special training of the wrestler.

The General (Group) plan of sports training includes the following sections: a brief description of the group; the purpose and main tasks of multi-year training; the main direction of the preparatory stages and the training process by stages (main tasks, their share in each stage); Sports-technical indicators and control norms that characterize the training of athletes; pedagogical and medical supervision.

The promising planning of the training will certainly entail the development of annual plans. A detailed description of the tools and training nagruzkas applied to the

annual plans is included. In daily planning, scientific laws of the dynamics of Sports form (occurrence, stabilization and temporary decrease) are used. The structure of daily planning is influenced by various factors: the order of study and work, the content of training, the number and the total sum of the dimensions of the nagruzkas, the individual characteristics of the reaction to the nagruzkas of training and the qualifications of wrestlers.

Rapid planning is based on daily planning. Such a type of planning provides for the clarification of tasks, tools, methods, nagruzka khajmi and severity. The structure of training sessions is determined primarily by the fact that it is aimed at achieving the maximum training effect. In accordance with the operational plan of the training, a synopsis of training is drawn up, in which the preparation (body heating) describes the main and final parts, the number of repetitions, the duration of breaks and the nature of rest.

In the process of training, three periods are distinguished: preparation, competition, transition periods.

During the preparatory period, trainings are aimed at ensuring a gradual transition from active rest to intense special work, the further development of physical qualities, the acquisition of wrestling techniques and tactics, as well as improvements. During this period, it is necessary to create a solid foundation for the successful functioning of athletes in the period of competition ahead of them. The main tasks of the preparatory period are to increase the functional capabilities of the organism, improve general physical fitness and develop the physical qualities necessary for the wrestler, master and improve technical-tactical actions, eliminate shortcomings in their implementation, and educate Will and spiritual qualities.

#### **Literature used:**

1. Mirzakulov A.G. Jismoniy tarbiya va sport. // O‘quv qo‘llanma. T.: 2023 yil. B. 111.
2. Jammatov J., Ro‘zmetov N. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Urganch 2020 yil.
3. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O‘kuv qo‘llanma. – T., 2018. – 172 b.
4. Kuchkarov U.L. Jismoniy tarbiya va sport. // O‘quv qo‘llanma. Namangan 2020 yil.

## GEMORAGIK ISITMALAR

*Shoymardonova Dilorom Nuriddinovna*  
*Chirchiq tibbiyot kollej yuqumli kasalliklar bosh o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Gemorragik isitma bu - o'z nomidan kelib chiqib isitma ko'tarilishi, teri ostiga va ichki a'zolarga qon quyilishi bilan kechadigan virusli kasallik. Bu kasallik o'z navbatida kasallikning kechishi, rivojlanishi, epidemiologik jarayonning namoyon bo'lishi, qo'zg'atuvchilarining o'ziga xosligi, kasallik qo'zg'atuvchilarining manbalari va yuqish mexanizmlariga qarab bir necha turlarga bo'linadi.

**Kalit so'zlar:** Gemorragik isitma, Qrim-Kongo gemorragik isitmasi, Omsk gemorragik isitmasi, Sariq isitma, Denge gemorragik isitmasi, Chikungunya gemorragik isitmasi, Buyrak sindromi bilan o'tadigan gemorragik isitma, Argentina gemorragik isitmasi, Boliviya gemorragik isitmasi, Marburg gemorragik isitmasi, gemorragiya, isitma, dezintoksikatsiya, sklera, eritrosituriya.

Gemorragik isitma kasalliklarini arboviruslar, arenoviruslar va filoviruslar qo'zg'atadi. Bugungi kunda dunyo bo'yicha besh yuzdan ortiq arbovirus turlari aniqlangan, shularning 100 tasidan ko'prog'i odamlarda kasallik chaqiradi. Respublikamizda odamlarda kasallik chaqiradigan 20 turga yaqin arboviruslar aniqlangan. Gemorragik isitma kasalliklari qo'zg'atuvchilarining rezervuarlari qishloq xo'jalik hayvonlari, kemiruvchilar, qushlar, kaltakesaklar hisoblanadi va ularning organizmlarida bu kasallik subklinik yoki latent shaklida namoyon bo'ladi. Arboviruslar qo'zg'atadigan gemorragik isitmalar asosan transmissiv yo'l bilan, ya'ni qon so'radigan bo'g'im oyoqlilarning chaqish jarayonida yuqadi. Arenoviruslar, filoviruslar qo'zg'atadigan gemorragik isitmalar esa maishiy muloqot, havo va parenteral muolajalar orqali o'tadi. Er yuzida uchraydigan gemorragik isitma kasalliklarining epidemiologik va geografik belgilariga asoslangan holda M.P. Chumakov birinchi bo'lib o'z tasnifini taklif etgan. Bu tasnif bo'yiclia gemorragik isitmalar uch guruhga bo'lingan:

1. Kanalar orqali yuqadigan gemorragik isitmalar (Qrim-Kongo gemorragik isitmasi, Omsk gemorragik isitmasi).

2. Chivinlar orqali yuqadigan gemorragik isitmalar (Sariq isitma, Denge gemorragik isitmasi, Chikungunya gemorragik isitmasi).

3. Kontagioz zoonoz gemorragik isitmalar (Buyrak sindromi bilan o'tadigan gemorragik isitma, Argentina gemorragik isitmasi, Boliviya gemorragik isitmasi, Marburg gemorragik isitmasi va h.k). Gemorragik isitma kasalliklari ko'p jihatlari bilan o'xshash bo'lsada, kasallikning kechishi, rivojlanishi, epidemiologik jarayonning namoyon bo'lishi, qo'zg'atuvchilarining o'ziga xosligi, kasallik qo'zg'atuvchilarining

manbalari va yuqish mexanizmlari bilan bir-biridan farq qiladi. Qrim — Kongo gemorragik isitmasi Sinonimlari: Qrim gemorragik isitmasi, Oʻrta Osiyo gemorragik isitmasi, Oʻzbekiston gemorragik isitmasi va hokazo.



**Kasallikning tarixi va geografik tarqalishi.** Virusli gemorragik isitma kasalliklari qadimdan maʼlum boʻlgan 1110-yili buyuk alloma, tibbiyot asoschilaridan boʻlmish Abu Ali ibn Sinoning shogirdlaridan bin Jurjoniy oʻzining «Xorazm boyliklari» nomli asari oltinchi kitobining «Kichik kasalliklar» boʻlimida gemorragik isitma kasalligini eslatuvchi xastalik toʻgʻrisida yozib, uni aksariyat hollarda ogʻir kechib, oʻlim holatlariga olib kelishi mumkinligi toʻgʻrisida yozgan. Oʻsha zamonlarda ushbu kasallik xalq tilida, oʻzbeklarda «Qora halak» (qora oʻlim) va tojiklarda «xun gribta» (qon oqish), «xuni-muni» (burundan qon ketish) deb atalganligi ham Oʻrta Osiyoda bu kasallikning azaldan maʼlumligidan dalolat beradi. QKGI kasalligi toʻgʻrisidagi birinchi ilmiy maʼlumotlar manbalarda 1944— yildan berila boshlagan. Olimlardan P.V. Sipovskiy va Yu.V. Ioffelar Tojikiston (Dushanbe shahri)dagi oʻtkir kapillyarotoksikoz, ichak va burundan qon ketishi, qon qusish va gemorragik toshma bilan kechadigan kasalliklar toʻgʻrisida xabar berishgan. 1944-yili Qrimda bir guruh odamlarda virus tabiatli oʻtkir isitma kasalliklari qayd etilgan va ularni oʻrgangan mashhur rus virusologi M .P. Chumakov bu kasallikning hali tibbiyotda maʼlum bolmagan yangi bir kasallik ekanligini eʼtirof etib, Qrim gemorragik isitmasi deb nom bergan. 1956-1969-yillarda shunga oʻxshash kasallik oʻchoqlari Bolgariya, Yugoslaviya, Vengriya, Sharqiy va Gʻarbiy Afrikada, Pokiston va Hindiston davlatladda aniqlangan. Bu kasallik sobiq Ittifoqning Qrim, Krasnodar, Stavropol oʻlkalarida, Astraxan, Rostov, Donetsk va Xerson viloyatlarida, Qozogʻiston, Oʻzbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon va boshqa davlatlar hududlarida roʻyxatga olinib boshlagan. Kasallik qoʻzgʻatuvchisi (virusi) birinchi boʻlib 1945-yilda isitma qilgan bemor bola qonidan shu virusga oʻxshash virus aniqlangan va unga Kongo virusi deb nom berilgan, virus keyinchalik Pokistonda (Xazar) ham ajratilgan. Tibbiyot adabiyotlarida «Kongo isitmasi» ni koʻp uchratish hisobga olinib, kasallikning geografik toponimi, yaʼni birinchi bolib kasallik va uning qoʻzgʻatuvchisi aniqlangan yarim orol va davlatning nomini inobatga olib, yuqumli kasalliklar tasnifida «Qrim-Kongo» gemorragik isitmasi (QKGI) degan kasallik nomi paydo boʻldi.

**Etiologiyasi.** QKGI qoʻzgʻatuvchisi oʻzida RNK saqlovchi arbovirus boʻlib, Bunyaviridae oilasiga, Navirovirus turiga kiradi, kasallik qoʻzgʻatuvchi virus yuqorida taʼkidlangandek, birinchi boʻlib 1945-yilda M.P. Chumakov tomonidan topilgan.



Keyinchalik Yevropa va O‘rta Osiyo davlatlarida aniqlangan bu viruslar bir xil viruslar bolib, bitta serologik turga mansub ekanligi ma’lum bo‘lgan. Virus sferik shaklida bo‘lib, diametri 92-96 nm keladi. Virus tashqi muhitda uncha chidamli emas, lekin yuqori haroratga juda sezgirdir. Virus ayniqsa cho‘chqa, Suriya olmaxoni va maymun embrioni buyraklari hujayralariga yaxshi o‘sadi. Virus asosan hujayralar sitoplazmasida joylashadi.

**Epidemiologiyasi.** QKGI virusining areali juda keng: Yevropadan Osiyo va Afrikagacha, hamdo‘stlik davlatlaridan Rossiya Federatsiyasining janubiy regionlarigacha, Ukraina, Moldova, Ozarbayjon, Armaniston, Qozogistonning janubiy viloyatlari va boshqa Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan O‘zbekiston Respublikasining bir qator viloyatlari hududlari ham (Buxoro, Navoyi, Qashqadaryo, Sirdaryo, Jizzax) QKGI bo‘yicha endemik hududlardan hisoblanadi (I.K Musabayev, 1980). QKGI virusi ma’lum tur kanalarida saqlanadi. Bugungi kunda 8 avlodga mansub bo‘lgan 27 xil kanadan QKGI virusi ajratilgan. QKGI virusi har xil endemik hududlardan turli xil kanalarda saqlanadi, ko‘pincha bu virus Hyalomma avlodiga kirgan iqsod kanalari organizmida saqlanadi. QKGI qo‘zg‘atuvchisining tabiiy rezervuari va manbalari qishloq xo‘jaligi hayvonlari hamda yovvoyi sut emizuvchilar (quyon, kemiruvchilar, tipratikan va boshqalar) hisoblanadi, virusning tabiatdagi saqlovchisi va tashuvchisi turli xil iksod kanalaridir. QKGI virusining yuqish mexanizmi transmissiv, ya’ni virus kanalar ning chaqishi natijasida odamga yuqadi. Odamga kasallik muloqot orqali ham yuqadi, ya’ni bemor qonini so‘rgan kanani ezib o‘ldirganda hamda QKGIga chalingan bemorning qoni sog‘lom odam terisi va shilliq qavatiga tushganda yoki bo‘lmasa parenteral muolajalar amalga oshirilganda, kasallik yuqishi mumkin. Bunday holatlarda QKGIga chalingan bemor kasallik qo‘zg‘atuvchi manbaga aylanadi va atrofdagi sog‘lom odamlar uchun xavf tug‘diradi. Adabiyotlarda QKGI kasalligining QKGI virusi (kulturas) bilan ishlaydigan laboratoriyalarda aspiratsion, ya’ni nafas olish organlari orqali yuqish holatlari qayd etilganligi to‘g‘risida ham ayrim ma’lumotlar berilgan. QKGI o‘ziga xos epidemiologik mavsumiylikka ega bo‘lib, kasallik asosan aprel-sentyabr oylarida qayd etiladi (90-95 % aprel - iyun oylarida). Kasallikning bunday epidemiologik mavsumiylikka ega bo‘lishi bevosita iksod kanasi faolligining oshishi bilan bog‘liqdir. QKGI kattalar, ayniqsa mehnat faoliyati cho‘l hududlari bilan bog‘liq bo‘lganlar o‘rtasida (cho‘ponlar va ularning oila a‘zolari, qirqimga vaqtinchalik jalb etilganlar, molga qarovchilar, boquvchilar, endemik hududlarida ishlovchilar) ko‘proq qayd etiladi. Kasallikning asosiy salmog‘i (80% dan ko‘proq) 20-60 yoshdagi odamlarga to‘g‘ri keladi, kasallikning 85-90 % erkaklarda uchraydi. Yuqumli kasalliklar o‘rtasida QKGIning salmog‘i uncha katta bo‘lmasada, kasallikning keng tarqalganligi, yuqori yuquvchanligi (kontagiozligi), kasallikda o‘lim darajasining yuqori bo‘lganligi, borgan

sari kasallikning faollashuvi kuzatilayotganligi bu kasallikka ko'proq e'tibor qaratilishini taqozo etadi.

**Klinikasi.** QKGI kasalligining klinik kechishida 4 davr farqlanadi: a) yashirin davri, b) boshlang'ich yoki umumtoksik davri, v) avj olish va gemorragik alomatlar namoyon bo'lgan davri, g) rekonvalessensiya davri. QKGI gemorragik belgilar bilan va gemorragik belgilersiz o'tadi. Kasallik kechishiga qarab esa, yengil, o'rta og'ir, og'ir shakllariga bo'linadi. **A.** Kasallikning yashirin davri kasallik kana chaqib yuqqanida, o'rtacha 3-6 kun, qon va qon ajratmalari bilan muloqotda bo'lib yuqqanida esa, 2-4 kunni tashkil etib, bu davrda bemorda hech qanday shikoyat ham, kasallik alomatlari ham bo'lmaydi. **B.** Boshlang'ich yoki umumtoksik davri bir necha soatdan 3 kungacha davom etadi. Kasallik o'tkir boshlanib, prodromal belgilar kuzatilmaydi. Kishi to'la sogiom paytida tanasi qaltirab, harorati 38,5 — 40,5 °C ga ko'tarilib ketadi. Bemorda ich ketish, boshning peshona sohasida kuchli og'riq, belda, bo'g'im va mushaklarda og'riq, umumiy holsizlik, juda ham tez charchash belgilari sodir bo'ladi. Bundan tashqari, 30-35% bemorlarda ko'ngil aynishi, qusish qayd etilib, bu holat ovqat iste'moli bilan bog'liq bo'lmaydi. Bemoring ichi suyuq o'tishi va qorning turli sohalarida og'riqlar bolishi mumkin. Obyektiv ko'rganda, kasallikning birinchi kunidan bemorning yuzi qizarib, bu qizarish bo'yin va ko'krak qismiga tez tarqaladi. Ko'zlari qizarib, bu qizillik asosan ko'zning lateral qismida uchwurchaksimon shaklda aniqlanadi. Teri quruq, issiq, periferik limfa tugunlari biroz kattalashadi. Isitmalash 1-5 kun, ayrim bemorlarda 5-10 kun va 10-15 kungacha davom etadi. Isitma xarakteri noto'g'ri yoki doimiy bo'lishi mumkin. **V.** Avj olish va gemorragik alomatlar namoyon bo'lgan davri — kasallikning 3-6 kunidan boshlab, avj olish davri boshlanadi. Gemorragik sindrom qon ketish va qontalash bilan namoyon bo'ladi. Eng ko'p uchraydigan gemorragik belgi— gemorragik toshmalaridir. Teri, shilliq qavatlar, in'eksiya joylarida qon talash, burundan qon ketishi, milk, og'iz shilliq qavatidan qon ketishi, qonli qusish, ichakdan qon ketishi kuzatiladi. Toshma xarakteri bo'yicha petexial bo'lib, yassi, teridan ko'tarilmaydi, bosib ko'rganda yo'qolmaydi. Rangi dastlab to'q-qizg'ish, keyinchalik qora rang tus oladi. Toshmalar soni bir nechta bo'lishi mumkin. Toshmalar ko'krak qafasi, qorning yonbosh sohasi terisida, yelka sohasi, bilak sohasi ichki yuzasi, son terisida, kam hollarda bemor bo'yin terisida uchrashi mumkin. O'lchami bo'yicha nuqtasimon toshmadan diametri 2,0-3,0 sm gacha etadi. Shakli bo'yicha yumaloq yoki oval bo'lib, chegarasi aniq, uning atrofidagi terida o'zgarish bo'lmaydi. Gemorragik elementlar 5-8 kun saqlanib, so'ngra oqara boshlaydi va kasallikning 9-14 kunida yo'qoladi. Barcha hollarda in'eksiya o'rinlarida turli o'lchamlardagi qon talashlar hosil bo'ladi. Toshma hosil bo'lishi bilan bir vaqtda, ayrim paytda undan bir-ikki kun oldin yumshoq va qattiq tanglayda nuqtasimon qontalash aniqlanadi. Shuni takidalash lozimki, kasallik qon orqali odamdan — odamga yuqqanida gemorragik sindrom kuchli va tez rivojlanadi. Bu virusning odam

organizmda virulentligining oshishiga bog'liq. Bu davr 3-7 kundan 10-15 kungacha, o'rtacha 7-9 kun davom etadi. Ayrim bemorlarda kasallikning ikkinchi isitma to'liqini qayd etiladi. Bunda birinchi isitma to'liqini so'ngandan keyin, 2-3 kun o'tgach yana isitma ko'tariladi, lekin u dastlabki isitma darajasiga yetmaydi. Obyektiv ko'rganda bemorning yuzlari, bo'yin sohasi terisi qizargan, terisi quruq, in'eksiya joylari ko'kargan. Periferik limfa tugunlari kattalashgan. Nafas olish majmuasida: burundan tomchilab yoki oqim bilan qon kelishi, bu qisqa yoki uzoq, o'rtacha 3-4 kun davom etishi mumkin. O'pkada tarqalgan quruq xirillashlar (10-13%) kuzatiladi. Kasallik og'ir o'tayotganda o'pkada mayda o'chog'li bronxopnevmoniya belgilari yuzaga keladi. Yurak, qon-tomir majmuasida: tomir urishi tezlashgan, sust to'lalilik va taranglikda, A/B— 90-70/50-30 mm simob ustunida kollaps holati ham bo'lishi mumkin. Ovqat hazm qilish majmuasida: ishtahasizlik, qon yo'qotilayotganda esa og'iz qurishi, chanqash, qorinning turli joylarida og'riqlar, ko'ngil aynishi, qonli qusish kuzatiladi. Bu belgilar kasallik yengil o'tsa 1-2 kun davom etadi. Ayrim payt bemorlarda to'xtovsiz qonli qusish kuzatiladi. Ularda milklarning qizarishi va bo'rtganligi aniqlanib, bu belgi asosan pastki jag' milkining kesuvchi tishlari atrofida yaqqol ko'rinadi. Milklar yumshaydi va qon keta boshlaydi, qon ketishi bir necha soatdan 4-8 kungacha davom etishi mumkin. Kasallikning avj olish davrida bemorning lablari quruq, yorilgan, qonashga moyil, tili quruq, oqish-sarg'imir karashli, ko'pincha «zangsimon» bo'lib, bu og'iz shilliq qavatidan, milklardan qon ketishga bog'liq bo'ladi. Og'izdan qo'lansa hid keladi, bu davrda tanglay murtaklari qizargan bo'lib, tilcha, tanglay murtaklari ravog'i biroz shishadi va bemor yutinganda, og'riq sezishiga sabab bo'ladi. Yumshoq tanglayda (asosan til ildizi sohasida), qattiq tanglay shilliq qavatida enantema paydo bolib, kasallikning 3-5 kunida yaqqol rivojlanadi. Enantema gemorragik, mayda nuqtasimon chegarasi aniq bolib, 5-7 kungacha saqlanadi. Qorni yumshoq, epigastral soha va kindik atrofida og'riq sezadi. Jigar va taloq aksariyat bemorlarda 1-2 sm ga kattalashadi. Siydik ajratish majmuasida: bel sohasida og'riq, Pasternatskiy belgisi musbat bo'lishi, oligouriya, makro- va mikro-gematuriya, albuminuriya, anuriya, azotemiya bilan namoyon bo'ladi. Siydikda 0,99 promilligacha oqsil aniqlanadi. Ayollarda bachadondan qon ketish kuzatiladi. Homilador ayollarda homila tushishi yoki vaqtdan oldin tug'ruq sodir bo'lishi mumkin. Kasallikning hamma hollarida bemorlarda birdan yuzaga keluvchi kuchli bosh og'rig'i, qaltirash va yuqori isitmalash qayd etiladi. Ayrim paytda bosh aylanishi kuzatiladi. Bemorning uyquchanligini, adinamik holatini e'tiborga olish lozim. Og'ir holatlarda bemorlarda, aksincha, qo'zg'alish, alahsirash, gallutsinatsiya, meningeal belgilar paydo bolib, keyinchalik hushini yo'qotadi, bradikardiya, gipotoniya, qorinda og'riq, ich qotishi yoki ketishi, ko'z qorachilarining nisbatan torayishi, yorug'likga sust reaksiyasi bilan namoyon boladi. Kasallikning avj olish davrida periferik qon taxlilida quyidagi

o'zgarishlar kuzatiladi: 90 % hollardagi gipoxrom anemiya, 75-80% hollarda 1 m 3 m qonda eritrotsitlar 2,0-3,0 min ta aniqlanadi.



Kasallik og'ir o'tayotganda, uzoq vaqt qayta qon ketishi bilan davom etsa, eritrotsitlar soni 1,0 mln gacha, gemoglobin 20-25 g/l gacha kamayadi. Rang ko'rsatkichi ko'pincha 1,0 dan past boiadi. Bu davrda qon tahlilidagi xarakterli belgilardan biri trombositlar miqdorining kamayishi bolib, bu 25-33% tekshirilgan bemorlarda 50 minggaacha kamaygani kuzatiladi. Kasallik qancha og'ir o'tsa, trombositopeniya shunchalik kuchli boiadi. Kasallikning avj olish davrida oq qon tanachalaridagi o'zgarishi leykopeniya (1mm<sup>3</sup> qonda 1100- 4000 gacha) bilan namoyon boiadi. Leykotsitar formulada nisbiy limfotsitoz, neytropeniya, aneozinofiliya yoki eozinopeniya, monotsitopeniya, EChT 30-60 mm/soatgacha tezlashadi. Gemorragik isitma kasalligi 80-95% hollarda o'rta og'ir yoki og'ir shaklda o'tadi. G. Rekonvalesstensiya davri bemorda klinik belgilaming so'nishi, hosil boigan gemorragik toshmalaming rangi kundan-kunga yo'qola boshlashi, ishtahasining ochilishi bilan xarakterlanadi. Gemorragik isitma kasalligi asoratlari: ko'p miqdorda qon yo'qotish natijasida gemorragik karaxtlik, ikkilamchi infeksiya qo'shilishi tufayli o'choqli yoki bo'lakli pnevmoniya, sepsis, o'pka shishi, o'tkir buyrak etishmovchiligi, otit, tromboflebit bo'lishi mumkin.

**Tashxisoti.** Bemorni erta aniqlash, uni samarali davolash hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni o'z vaqtida tashkil etish uchun ahamiyatlidir. Ammo gemorragik isitmaning boshlang'ich davrida, ya'ni umumtoksik belgilar paydo bo'lganda, bemorga tashxis qo'yish juda qiyin. Shuning uchun ham bu kasallikda tashxis ko'pincha gemorragik davrda qo'yiladi. QKGI kasalligi tarqoq (sporadik) qayd etilganda, 90- 95% holatlarda “o'tkir respirator infeksiya” va “noma'lum etiologiyali isitma” tashxislari bilan yotqiziladi. Shu bilan birgalikda bu kasallikning boshlang'ich davrida dastlabki tashxis qo'yishda ayrim klinik va epidemiologik mezonlar mavjud. Epidemiologik anamnezda bemorning tabiiy o'choqdan ekanligi, kana chaqqanligi, kanani qo'li bilan ezib o'ldirganligi, qo'llari mayda shoxli hayvonlarning junini qirqayotganda kana qoni bilan ifloslanishi va hokazolar surishtiriladi. Laboratoriyaviy tashxisoti. Gemorragik isitmalarda bemor qonida virus yoki unga qarshi paydo bo'lgan spetsifik antitela serologik usulda aniqlanadi. Virusni ajratish faqat virusologiya ilmiy tekshirish institutlarining ruxsatnomasi bo'lgan tahlilxonalarda o'tkaziladi. Buning uchun kasallikning o'tkir davrida, yuqori isitma paytida, bilak venasidan qon olinadi.

Olingan qon ikkiga bo‘linib, bit virusni ajratish uchun, ikkinchisi esa serologik reaksiya uchun foydalaniladi. Serologik tekshiruviga olingan qon steril penitsillin yoki insulin flakoniga solinib, yorliqlanib, maxsus muz solingan konteynerga yoki keng og‘izli termosga solinadi. Serologik tahlil uchun kasallikning boshlang‘ich davrida va 2-3 haftadan keyin juft zardob olinadi. Tahlilga qon olinayotganda, uning sachrashidan, ter va shilliq qavatlamining ifloslanishidan ehtiyot bo‘lish kerak. O‘lim holati qayd etilganda, laboratoriya tekshiruviga murda organlari bo‘laklari (miya, jigar, taloq, buyrak, o‘pka) steril flakonlaiga solinib, maxsus laboratoriyaga yuboriladi. Kasallikning birinchi haftasida o‘lim yuz bersa, murdadan olingan seksion materiallardan hamma hollarda virus ajratiladi.



**Davosi.** O‘zbekiston gemorragik isitmasida maxsus davo maqsadida rekonvalesentlarning qoni va qon zardoblari kasallik kechim og‘irligiga mos holda vena ichiga tomchilab yuboriladi. Hozirgi kunda viruslariga qarshi preparatlar (amiksin, tsikloferon)ning bu kasalliklarda samaradorligi o‘rganilayapti (Obloqulov A.R., Narziev I.I. 2001). Davo choralari asosan zaharlanish, gemorragiyani bartaraf etish va yurak—qon tomir tizimi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan bo‘ladi. Bemor 2-4 hafta davomida o‘rnida yotadi. Oson hazm bo‘ladigan kaloriyali, vitaminlarga boy ovqat beriladi. Mineral suvlar, ho‘l meva va sabzavot sharbatlari ko‘p beriladi. Vitamin C, B va P preparatlari tayinlanadi. Qusishga qarshi yalpiz preparatlari, anestezin va novakainning 0,5 % eritmasi osh qoshiqda uch mahal ichiriladi. Me‘da 2-3 % li soda eritmasi bilan qayta-qayta yuviladi. Venaga 10%li osh tuzi eritmasi va teri ostiga 1,0 mi, 2,5 %li aminazin yuboriladi. Zaharlanish kuchli bo‘lganda, qon quyiladi, kortikosteroidlar tavsiya etiladi. Gemorragiyaga qarshi kaltsiy xloridning 10%li eritmasidan 10 mi, natriy xloridning 10%li eritmasidan 10-50 mi, jelatinaning 10%li eritmasidan 10 mi, kaltsiy glyukonatning 10%li eritmasidan 5-10 mingdan venaga yuboriladi. Gemostatik dozada qayta-qayta qon quyiladi. Giperimmun immunoglobulin foydali ta’sir ko‘rsatadi. Bemorning ahvoli bir qadar yaxshilanib qolganidan keyin kam qonlikka qarshi 100 mgdan vitamin B12 mushak orasiga, 2,0 mldan kam yoki antianemin mushaklar orasiga in’eksiya qilinadi, 0,5 gdan 3 mahal kalsiy glitserofosfat ichiriladi. Mabodo qandaydir asoratlar paydo bo‘lsa, antibiotiklar tayinlanadi.

**Profilaktikasi.** Profilaktik chora tadbirlar tabiiy o‘choqlarda kemiruvchilarni yo‘qotishga qaratilgan. Shuning bilan birga turar joylarda va ular atroflarida sanitariya-

gigiyena qoidalariga qat’iy rioya qilishdan iborat. Gemorragik isitma kasalligining kasalxona ichi infeksiyasi sifatida qayd etilishining oldini olish maqsadida quyidagilarga e’tibor qaratilishi qat’iyan talab etiladi: 1. Gemorragik isitma kasalligiga chalingan yoki shu kasallikka gumon qilinganlar hamda kana chaqqanlar yuqumli kasalliklar kasalxonasining (bo‘limining) maxsus jihozlangan xonasiga (boksiga) «Epidtashuv» yoki «Tez yordam» avtotransportlarida olib kelinib yotqiziladi. 2. Bemorga tibbiy yordam faqat maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan vrach va o‘rta tibbiyot xodimlari tomonidan beriladi. Kichik tibbiyot xodimlarining bemorga xizmat ko‘rsatishi ta’qiqlanadi. 3. Bemor parvarishiga, unga yordam ko‘rsatishga oila a’zolari, qarindoshlari va yaqinlarining ishtiroki qat’iyan man etiladi. 4. Qo‘llari jarohatlangan, yiringli jarayonlari bolgan tibbiyot xodimlariga bemorlariga tibbiy yordam ko‘rsatish, parvarish qilish ruxsat etilmaydi. 5. Bemorlaiga tibbiy yordam ko‘rsatishda va parvarish qilishda tibbiyot xodimlari birinchi tur o‘latga qarshi kostyumdan foydalanadi. Qo‘llariga ikki juft rezinali qolqop ustma-ust kiyilishi, og‘iz burunga 4 qavatli doka niqob va ko‘zga ko‘zoynak taqilishi shart. 6. Bemorga tibbiy yordam ko‘rsatish va parvarish etishda bemorlar qoni bilan ifloslanishdan juda ehtiyot bo‘lishi kerak. Tibbiyot xodimlari bemorlarning qoni orqali o‘ziga bu kasallikni yuqtirib olishi mumkinligini har soniyada yodlarida tutishlari shart. 7. Bemorlarga parenteral muolajalarni tayinlash masalasiga juda jiddiy qarash kerak, va imkon qadar bu muolajalarni kamaytirish lozim. 8. Vrach bemorlarni ko‘rgandan so‘ng, o‘rta tibbiyot xodimi muolaja va bemorlar parvarishi bilan shug‘ullangandan keyin qollarini 3%li xloramin eritmasida ho‘llangan sochiq bilan artishi kerak. 9. Bemorlarga faqat bir marta foydalaniladigan shpritslar, igna va boshqa ayrim tibbiy uskunalar ishlatiladi, ular ishlatilgach, 3%li xloramin eritmasiga solinib, bir soat davomida saqlanadi, so‘ngra yo‘qotiladi (mufel o‘chog‘ida yoqiladi). 10. Foydalanilgan rezinali qolqop, niqob echilib, 3%li xloramin eritmasiga cho‘ktirilib, 1 soat davomida saqlanadi, so‘ngra yuviladi. Ko‘zoynak 70 % li etil spirtida ho‘llangan bint bilan artiladi. Bemor qoni va boshqa chiqindilari bilan ifloslangan kiyimlari ham 3%li xloramin eritmasida ivitiladi va so‘ngra yuviladi. 11. Bemor chiqindilariga (qon, siydik, najas, qusuq massalari, so‘lagi) xlorli ohak yoki gipoxlorit kaltsiy kukuni (1:2 nisbatda) sepilib aralashtiriladi, 2 soat davomida ekspozitsiya qilinadi va kanalizatsiyaga oqiziladi, kanalizatsiya bolmagan taqdirda maxsus xandakka tashlanadi. 12. Bemor chiqindilari bilan ifloslangan yumshoq jihozlar, tibbiy asbob-uskunalar 3%li xloramin eritmasida yuqumsizlantiriladi, idish— tovoqlar esa 2%li so‘dali eritmaga solinib, 20 min qaynatiladi. Bemor chiqindilari bilan ifloslangan salftkalar, paxtali shariklar, bintlar, qog‘oz va hokazolar maxsus idishga solinib, mufel o‘chog‘ida yoqib yuboriladi. Bemorni davolashda va parvarishida ishtirok etgan tibbiyot xodimlari olti kun davomida tibbiy kuzatuvga olinadi. Uzoq Sharq gemorragik isitmasi yoki gemorragik nefrozonefrit Etiologiyasi. Bu isitmani ham arbovirus avlodiga kiradigan virus

qo‘zg‘atadi. Virusning rezervuari mayda kemiruvchi hayvonlardir (sichqonlar va kalamushlar). Kasallik odamlarga kemiruvchilarning ektoparazitlari orqali transmisiv yo‘l bilan yuqadi. Kemiruvchilar najasi bilan ifloslangan har xil buyumlar orqali ham yuqishi mumkin (kontakt yo‘li), lekin odamga yuqmaydi. Bu kasallik Uzoq Sharq, Koreya, Rossiyaning Yaroslavl, Kalinin va Tula viloyatlarida uchraydi.

**Klinikasi.** Yashirin davri 11-26 kun davom etadi. Kasallik to‘satdan boshlanadi. Bemor eti uvishib, harorati 39-40 darajaga ko‘tariladi va 3-5 kun davomida shu holda turadi. Bemorning boshi, mushaklari, beli og‘riydi, darmoni quriydi. Ishtahasi yo‘qoladi, ko‘ngli aynib, qusadi, ko‘zi hiralashadi. Keyin harorat sekin-asta pasayib, kasallikning 4-9 kunlariga borganda, normal darajagacha tushadi. Kasallik yengil o‘tganida, harorat ko‘tarilmasligi mumkin. Bemorlar atrofga e‘tibor bermay xayol surganday bolib yotadi. Bemor tanasining yuqori qismi va yuzi qizargan boladi. Ko‘zlari ham qip qizarib, shilliq pardalari shishib turadi. Kasallikning 2-3 kuni ko‘krak kafasining yon tomonlari, yelkaning ichki tomonida va qoltiqda petexial toshma ko‘rinadi. Tanglayda enantema paydo bo‘ladi. Toshmalar 1-2 haftadan so‘ng yo‘qoladi. Ukol qilgan joylaiga qon quyilib qoladi. Ba‘zan uchuq toshadi. Bemor me‘da sohasida og‘riq sezadi, ba‘zan ketma-ket qusaveradi. Qusuq qon aralash boladi. Bemorni hiqichoq tutishi juda holdan ketkazadi. Bemor tili karash bilan qoplanadi, tomoq shilliq pardasi qizaradi, ba‘zan enantema va gemorragiya ko‘rinadi. Ichak shilliq pardasi va qorin pardasi orasidagi to‘qimalariga qon quyilishi, qorin og‘rigiga sabab boladi. Jigar shishadi, og‘riydi. Bu isitmada buyrakning zararlanishi xarakterlidir. Siydikda oqsil va eritrotsitlar topiladi. Kasallikning 5-7 kunlaridan boshlab Pasternatskiy belgisi yaqqol aniqlanadi, siydik kamayib, anuriyagacha boradi. Oliguriya 9-12 kungacha davom etadi, so‘ngra poliuriya bilan almashinadi, bemorlar bir kecha-kunduzda 3-5 l gacha siyadi. Shu vaqtda bemorni tashnalik bezovta qiladi. Poliuriya yaxshi alomat hisoblanadi. Tekshirishlar buyrakning konsentrlash funksiyasi buzilganini ko‘rsatadi. Qonda qoldiq azot ko‘payadi. Ba‘zi hollarda bemorning es hushi kirdi-chiqdi bo‘lib turadi, gallutsinatsiya, infeksiyon psixoz va meningizm alomatlari ko‘rinadi. Bemorning ko‘zi xiralashadi, buyumlar qizg‘ish bo‘lib ko‘rinadi. Bunday holat 2-3 kun davom etadi. Bu darddan sog‘ayish davri 2-3 oyga cho‘ziladi.

**Asoratlari.** Eng og‘ir asorati azotemik uremiyadir. Kamdan-kam hollarda buyrak po‘stloq qavati yorilishi mumkin. Zaharlanish kuchli bo‘lganda, o‘tkir tomirlar yetishmovchiligiga xos alomatlar uchraydi. Ba‘zan ikkilamchi infeksiya qo‘shilish natijasida otit, parotit, tromboflebit, pnevmoniya boshlanadi. Laboratoriyaviy tashxisoti. Kasallik virusini jo‘ja embrionida urchitish yo‘li bilan ajratib olish mumkin. Kasallikning ikkinchi haftasidan boshlab KBR musbat natija bera boshlaydi. Tashxis uchun siydikni tekshirish muhim ahamiyatga ega. Hamma vaqt albuminuriya aniqlanadi. Siydik cho‘kmasida eritrotsitlar, gialin va mumsimon tsilindrlar, buyrak epiteliyasi hujayralari topiladi. Kasallikning birinchi kunlarida gemoglobin va

eritrotsitlar miqdori ko'payadi va leykotsitlar soni kamayadi. Kasallik avjiga chiqqanida, leykotsitoz (30- 50 ming) boshlanib, qonda mielotsitlar, promielotsitlar va megaloplastlar paydo bo'Madi. Ba'zan ulkan neytrofillar ko'rinadi. Sog'ayish davrida yanada qaytadan leykopeniya bo'ladi, limfotsitlar kamayib, monotsitlar ko'payadi, ba'zan gisteotsitlar paydo bo'ladi, eozinofillar yo'qoladi, Tyurk hujayralari topiladi. EChT boshlanishda sekinlashadi, keyin tezlashadi.

**Davosi.** Buyrak sindromi bilan o'tadigan gemorragik isitmaning davosi boshqa xil gemorragik isitmalar davosi bilan bir xil, agar azotemiya holati yuz bersa, gemodializ yoki peritonial dializ tavsiya qilinadi. Poliuriya davrida suv — elektrolitlar muvozanatini saqlashga qaratilgan davo choralari ko'riladi. Profilaktikasi. Bemor albatta kasalxonaga joylanadi va kasailikning tibbiy xodimlarga yuqmaslik choralariga aihoda e'tibor qilinadi. Endemik o'choqlarda kemiruvchilarni yo'q qilishga qaratilgan choralar ko'riladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shodiev N.SH, Shodieva S.X.Yuqumli kasalliklar fanidan amaliy mashg'ulotlar bo'yicha o'quv – uslubiy qo'llanma. Toshkent 2009- yil.
  2. E.I.Musaboyev, A.K.Bayjanov. Yuqumli kasalliklar epidemiologiya va parazitologiya.Toshkent 2006 yil.
  3. Sh. Sh. Shovaxobov. Yuqumli kasalliklar va epidemiologiya asoslari.Toshkent,1997 yil
  - 4.Yu. T. Umarova.Hamshiralik ishi.Toshkent 2003 yil.
  5. YUNISEF ma'lumotlari.  
Internet saytlari
1. [http: //www. Ziyo. Net. uz/](http://www.Ziyo.Net.uz/)
  2. [http: //www. lex. uz/](http://www.lex.uz/)



## BODRING YETISHTIRISH, UNING ZARARLI VA FOYDALI XUSUSIYATLARI

*Norboyeva Nodirabegim*  
*Qoraqalpoq Davlat Universiteti*  
885051752

**Annotatsiya.** Bodring urug‘larini ekishdan oldin issiqxona tuprog‘ini ekishga tayyorlash lozimdir. Bunda avvalgi ekindan qolgan o‘simlik qoldiqlari issiqxonadan chiqarib tashlanadi. Issiqxona tuprog‘i tekislanadi, kasallik va zararkunandalardan hamda begona o‘tlardan tozalanadi va dizinfektsiya qilishni, uch kun tuproq yuzasiga plyonka yopib, qoldiriladi. Issiqxona tuprog‘i tekislanadi va tomchilatib sug‘orish quvurlari yotqiziladi. Shu yo‘sinda issiqxona tuprog‘i ekishga tayyorlanadi. Biz ushbu maqolada bodringni yetishtirish va uning foydali va zararli xususiyatlari hamda yuqoridagi ma’lumotlar haqida fikr yuritdik.

**Kalit so‘zlar:** Bodring, issiqxona, sabzavotchilik, hosildorlik, orzu Fi, multisar FJt Cucurbitaceae, shoxlanuvchan, qirrali, tukli.

**Абстрактный.** Прежде чем сажать семена огурцов, необходимо подготовить тепличную почву для посадки. Растительные остатки предыдущего урожая удаляются из теплицы. Почву теплицы выравнивают, очищают от болезней, вредителей и сорняков и дезинфицируют, накрывают пленкой поверхность почвы на три дня и оставляют. Почва теплицы выравняется и прокладываются трубы капельного орошения. Таким образом почва теплицы готовится к посадке. В этой статье мы подумали о выращивании огурца, его полезных и вредных свойствах, а также вышеизложенной информации.

**Ключевые слова:** Огурец, теплица, овощеводство, продуктивность, желание Fi, multisar FJt Cucurbitaceae, ветвление, остроконечное, опушенное.

**Abstract.** Before planting cucumber seeds, it is necessary to prepare the greenhouse soil for planting. Plant residues from the previous crop are removed from the greenhouse. The soil of the greenhouse is leveled, cleaned of diseases and pests and weeds and disinfected, covered with a film on the surface of the soil for three days and left. The soil of the greenhouse is leveled and drip irrigation pipes are laid. In this way, the soil of the greenhouse is prepared for planting. In this article, we thought about the cultivation of cucumbers and its beneficial and harmful properties, as well as the above information.

**Key words:** Cucumber, greenhouse, vegetable growing, productivity, desire Fi, multisar FJt Cucurbitaceae, branching, pointed, hairy.

### **Kirish**

Bodring – bir yillik, o‘t o‘simlikdir. Vatani — Hindiston hisoblanadi, ammo hozir dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida yetishtiriladi. Issiqsevar o‘simlik hisoblansada, vegetatsiya davrining qisqaligi sababli yer kurrasining shimoliy o‘lkalarida ham yetishtiriladi. O‘zbekistonda sabzavot ekini sifatida keng ekiladi, yetishtirish maydonlari bo‘yicha pomidor, piyoz, sabzi, oq bosh karam sabzavotlaridan keyingi o‘rinda turadi. O‘zbekistonda taxminan 8000-10000 gektar maydonda yetishtiriladi.

Bodring madaniy holda 3 ming yil ilgari yetishtirila boshlangani haqida ma’lumotlar bordir. Vatani Hindistonning tropik va subtropik rayonlari hisoblanib, Himolay tog‘ yonbag‘irlarida haligacha tabiiy holda o‘sadi. Hindistondan Gresiya va Italiyaga tarqalgan va keyinroq Xitoyga ham yetib borgan. Evropaning boshqa qismlariga rimliklar tomonidan olib kirilgan. Bodring Fransiya hududiga 9-asrda, Angliyaga 14-asrda, Shimoliy Amerika qit‘asiga 16-asr o‘rtalarida kirib borgan. Rossiyaga bodring Sharqiy Osiyo davlatlaridan 16-asrlarda kirib borgan degan taxmin bor (olmon elchisi Gerbershteynning Fors o‘lkasi va Moskovyaga bo‘lgan safari xotiralari), lekin ayrim tarixchilarning fikriga qaraganda bodring Rus o‘lkalarida 9-asrlarda ham ma’lum bo‘lgan.

Poyasi yer bag‘irlab o‘sovchi, palakli o‘simlik, gajaklari oddiydir. O‘simligi 4-5 ta barg hosil qilgach, yerga yotib, yoyilib palak otadi yoki gajaklari yordamida atrofdagi narsalarga chirmashib o‘sadi. Poyasi shoxlanuvchan, yumaloq, yumaloq-qirrali yoki qirrali, tuklar bilan qoplangan bo‘ladi. Asosiy poya, so‘ngra uning barg qo‘ltiqlaridan birinchi tartibli va ikkinchi tartibli yon shoxlar hosil bo‘ladi. Bodring o‘simligi naviga, oziqlanish maydoni va haroratga bog‘liq holda sust, o‘rtacha va kuchli shoxlanuvchan bo‘ladi. Shoxlanish turiga qarab bodring navlari bir poyali, kuchli- (yon shoxlari 8 dan ko‘p), o‘rtacha- (5-8 tagacha yon shoxlar) va sust- (1-4 tagacha yon shoxlar) shoxlanuvchan poyali navlarga bo‘linadi. Poyaning uzunligi nav va yetishtirish shart-sharoitlariga qarab belgilanadi: ochiq maydonda asosiy poya 1-1,5 metr, qulay sharoitlar tug‘ilganda 3 metrgacha, issiqxonalarda 5 metrgacha o‘sadi. Poyasi ingichka (diametri 0,5 cm kam) va qalin (0,5 cm dan ko‘p) bo‘lishi mumkin. Kalta palakli bodring navlari odatda tezpishar, mevasi nisbatan kalta, vegetatsiya davri qisqaligi bilan xarakterlanadi. Naviga qarab bodring o‘simligi sust, o‘rtacha va kuchli barglangan turlarga ajratiladi.

Barglari poyada navbatma-navbat joylashadi. Barg plastinkasi butun, yuzasi tekis yoki ajinli, barg qirrasi ham odatda tekis. Shakli naviga qarab yumaloq panjasimon yoki oval panjasimon bo‘lishi mumkindir.

Ildiz tizimi sterjensimon, kuchli tarmoqlanadi. U 1 metrgacha o‘sovchi asosiy ildiz va ko‘p sonli qo‘shimcha ildizlardan tashkil topgan. Tuproqdan oziq moddalar eritmasini so‘rish kabi fiziologik funksiyani tukchalar bilan qoplangan kichik so‘ruvchi

ildizlar amalga oshiradi. Ildiz tizimining asosiy qismi tuproqning 20-25 cm qatlamida rivojlanadi, ildizning yon tomonga tarqalib o‘shish radiusi 1,5 metrgacha bo‘lishi mumkin. Yuqori namlikda asosiy va yon shoxlari tuproqqa tegsa qo‘shimcha ildizlar hosil bo‘lishi mumkin.

Bodringning ko‘pchilik nav o‘simliklari bir uyli ikki jinsli, ya’ni erkak va urg‘ochi gullar bitta o‘simlikning o‘zida joylashgan bo‘ladi. Erkak gullari poyada odatda 5-7 ta bo‘lib, to‘p gul hosil qiladi, bir uyli bodring navlarida ko‘pchilik hollarda erkak gullarning soni urg‘ochi gullarnikiga nisbatan ko‘p bo‘ladi. Urg‘ochi gullar poyada 1 ta yoki juft, ayrim hollarda 3 ta bo‘lib joylashadi. Asosan urg‘ochi gullar hosil qiluvchi bodring navlari oldiga changlanish uchun yetarli darajada erkak gullar hosil qiluvchi navlar birga ekiladi. Gultojibarglari yorqin sariq rangli, erkak gullarida 5 ta changchi bo‘lib shundan 4 tasi juft xolda bittasi yakka holda bo‘ladi. Bodring gullari ko‘p yashamaydi: erkak gullari 1-2 kundan so‘ng, urg‘ochi gullar esa gullagandan keyin 3-4 kundan keyin so‘lib qoladi. Faqatgina changlangan urg‘ochi gullaridan meva hosil bo‘ladi, changlanmaganlari to‘kilib ketadi. Bodring chetdan changlanuvchi o‘simlikdir. Partenokarpik navlarida gullari changlanishga muhtoj emas, ammo bunday gullardan meva hosil bo‘lsa-da, mevalarida urug‘ bo‘lmaydi.

Bodring mevalari soxta rezavor bo‘lib, 3-5 urug‘ kameralari hosil qiladi. Shakli, rangi, o‘lchamlari va vazni navlariga qarab o‘zgaradi. Bodringning pishmagan barra mevalari iste’mol qilinadi. Naviga qarab sirti tekis, notekis yoki cho‘tir bo‘lishi mumkin. Meva uzunligi barraligida 5-70 sm gacha, rangi yashil yoki to‘q yashil bo‘lishi mumkin, biologik pishganida esa meva kattalashadi, rangi och sariq, to‘q sariq yoki jigarrang tusga kiradi. Mevalari biologik pishganida urug‘lik deb ham yuritiladi. Bitta mevada 100-400 tagacha urug‘ hosil bo‘ladi. Urug‘lari uzunchoq-ovalsimon, oq tusli och sariq rangli, 1000 tasining vazni 16-35 gramm keladi. Unuvchanligini 6-8 yilgacha saqlaydi. 2-3 yillik urug‘lari yaxshi hosil beradi.<sup>1</sup>

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Bodring sabzavotlar ichida eng sersuvi bo‘lib, inson organizmi uchun juda foydali ne’matlardan biridir. Bodring tarkibining 90 foizdan ortig‘ini suv tashkil etadi. Ushbu sabzavotda kraxmal, shakar, oqsil, kletchatka, organik kislotalar, efir moyi, bir qator darmondorilar, kaliy, kalsiy, natriy, magniy, temir, fosfor, yod, oltingugurt, qalay, mis, ftor, xrom, alyuminiy kabi moddalar mavjud.

Shuningdek, bodring ovqat hazm qilish bezlarining faoliyatini va so‘lak ajralishini me’yorlashtirib, oqsil moddasini yanada yaxshiroq o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Shuning uchun bodringning suvli bo‘lakchalari taomni nafaqat chiroyli va xushta’m qiladi, balki hazm qilish jarayonini ham yaxshilaydi.

---

<sup>1</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bodring>

Bodring qondagi xolesterin miqdorini kamaytiradi va buyraklar salomatligini mustahkamlaydi. Muntazam ravishda iste'mol qilinsa, saraton xavfini bartaraf etadi. Ovqat hazm qilish tizimiga yaxshi samara ko'rsatadi va ortiqcha vazndan xalos bo'lishga ko'maklashadi.

Sharbati isitma tushirish xususiyatiga ega, yo'tal, bo'g'im kasalliklari, yurak bilan bog'liq shishlarda foyda beradi. Bodring po'stlog'i yuzning rangi va tiniqligini saqlashda, teri kuyishi hamda shishlar paydo bo'lganda yordam beradi. Po'stning quritib ezilganidan teri kasalliklari va toshmalarda foydalanish tavsiya etiladi. Bodring allergiya chaqirmaydi, shu sababli uni allergik kasalliklarga chalingan bemorlar bemalol iste'mol qilishlari mumkindir.

Uzluksiz davom etgan mehnat faoliyati sabab ba'zan ko'z atrofida, pastki qovoqlarda qorayish kuzatiladi. Bu holatda bodring parrak shaklda kesib, 3-5 daqiqa davomida muzlatkichda sovuting va 10 daqiqaga qoraygan joyga qo'ying. Xuddi shu usul yuzdagi husnbuzar va qora dog'larni ketkizishda, quyosh nuri sabab kuygan joylarni zararsizlantirishda ham samarali bo'ladi.

Bundan tashqari, ko'p miqdorda tuz tufayli tuzlangan bodringning zarari bosimning oshishi, shishish, tanadagi suyuqlikni ushlab turish bilan ifodalanishi mumkin bo'ladi. Mutaxassislarning aytishicha, tuzlangan bodringni tez -tez ishlatish bilan ular yuqori kislotalilik tufayli tishlarning emalini yo'q qiladi. Shifokorlar, shuningdek, jigar kasalliklari, podagra, yurak xastaliklari bilan og'rigan odamlarga mahsulotni suiiste'mol qilishni tavsiya etmaydi. Homilador ayollar uchun bodringni tuzlashning zarari bor. Ular toksikoz ko'rinishini qo'zg'atishi, ko'ngil aynishi va yonish sabab bo'lishi mumkindir.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

Amerikalik professor va klinik farmakologiya bo'yicha mutaxassis Ayk S. Arakelyan hozirda bodringni o'rganish bilan shug'ullanadigan va bir nechta ilmiy maqolalar chop etgan kam sonli kishilardan biridir. Mutaxassisning fikricha, unda ba'zi vitaminlar saqlanib qolgan. Misol uchun, K vitamini suyaklarni mustahkamligida alohida ahamiyatga ega. Bir dona o'rtacha bodringda 8,5 mikrogram K vitamini mavjud, ayollarga kuniga 90 mikrogramm, erkaklar esa 120 mikrogramm iste'mol qilish tavsiya etgan.

### **Tahlil va natijalar**

Bodring ko'p suv talab qiladigan o'simlik hisoblanadi. Asosan o'simlikni yoshligida ko'chat atroflari yumshatiladi. Bodring yotib o'suvchi o'simlik shu sabab 90x25 sxemada ekish maqsadga muvofiqdir.

Tuproqni tayyorlash. Bodring ko'chatlarini ekishdan oldin issiqxona tuprog'ini ekishga tayyorlanadi. Eng avval issiqxona tuprog'i tekislanadi. Ekishga mo'ljallangan maydon kasallik va zararkunandalardan hamda begona o'tlardan tozalash maqsadida shaffof polietilen plyonka bilan yopib qizdiriladi. Bunda tuproq usti yopilgan holatda

1-1,5 oygacha turadi. So‘ngra plyonka olib tashlanib, issiqxona tuprog‘i tekislanadi va tomchilatib sug‘orish quvurlari yotqiziladi.

Playing skills in volleyball are fundamentally different from other playing sports, the optimal ratio in the development of physical qualities of volleyball players, as well as the improvement of technique can create the maximum possible conditions for effective mastery of this sport. The development of dexterity is carried out during the entire period of training and training. Special outdoor games that develop this quality in the shortest period of time should be used during all periods of work. As special outdoor games, games can be used that educate the ability to quickly assess the situation and respond to it by performing appropriate actions. A large number of games used in the lessons should follow in a certain sequence so that the completion of the task is feasible for the students. Otherwise, the opposite phenomenon occurs, when the student cannot complete tasks and, embarrassed by the awkwardness of his movements, turns out to be even more constrained and less dexterous.

The effectiveness of a player's actions depends on how skillfully and effectively he applies technical and tactical techniques, taking into account the current game situation at each moment. Therefore, it is important to ensure that all aspects of training are reflected in the actions of the volleyball player in the game. The implementation of the theoretical foundations of learning and training directly in practice is one of the most important problems. The playing skills of volleyball are fundamentally different from those in other sports. In volleyball, the optimal balance in the development of qualities and the improvement of technique only create favorable prerequisites for effective mastery of the skills of the game. The most important thing here is the relationship between technical and tactical training, thanks to which technical skills are successfully implemented in the game.

**LIST OF USED LITERATURE**

1. Бахтина, Т.Н. Физическая культура: учебное пособие. / Т.Н. Бахтина, И.И. Александров, Н.В. Курова. — СПб. : СПбГЛТУ, 2012. — 128 с.
2. Беженцева, Л.М. Основы методики физического воспитания: Учебное пособие. / Л.М. Беженцева, Л.И. Беженцева.— Томск : ТГУ, 2009.
3. Бомпа, Т. Периодизация спортивной тренировки. / Т. Бомпа, К. Буццичелли.— М. : Спорт, 2016. — 384 с.
4. Верхошанский, Ю.В. Основы специальной силовой подготовки в спорте.— М. : Советский спорт, 2013. — 216 с.
5. Виноградов, П.А. О состоянии и тенденциях развития физической культуры и массового спорта в Российской Федерации (по результатам социологических исследований). / П.А. Виноградов, Ю.В. Окуньков. —М. : Советский спорт, 2013. — 144 с.

## SEMANTIC CHARACTERISTICS OF DIFFERENT TYPES OF FORMULAIC EXPRESSIONS

*Sheraliyeva Dildora Abduvaxob qizi*

*English teacher of Namangan State Institute of Foreign Languages*

**Abstract:** In linguistics, we can explore our knowledge about meaning by studying semantics. Semantics is in linguistics that studying about meaning of words, phrases, sentences, or larger units of discourse. Several disciplines and approaches have contributed to the often contentious field of semantics. One of the crucial questions which unites different approaches to linguistic semantics is that of the relationship between form and meaning. Semantics as a linguistic theory that investigates word meaning. This theory understands that the meaning of a word is fully reflected by its context. For example, proverbs and idioms can be proper samples of analyzing semantically. Proverbs and idioms, as metaphoric expressions or as cultural discourse, are condified on semantic structures. Clearly, proverbs have discursive autonomy and are quoted as “texts”, idioms instead are reproduced as lexical units and they are full of wisdom provide to people, while an idiom is a phrase that has its own meaning. Another difference is that proverbs verbalize general truth and fall back on shared knowledge of the people whereas idioms are fixed phrases with a figurative meaning.

**Keywords:** Semantics, formulaic expressions, linguistic analysis, word phrases, phraseological units, proverbs, idioms, different meanings

### INTRODUCTION

Semantics is the scientific study of meaning of words, word phrases and sentences. The term is one of a group English word formed from various derivatives of the Greek verb *semainein* (to mean or to signify). The word semantic has ultimately prevailed as a name for the doctrine of meaning, in particular of Linguistics meaning. Semantics is one of the branches of linguistics studying about meaning and it is considered as a major branch of linguistics devoted to the study of meaning in a language. It is stated also by the researchers that semantics is technical term used to refer to the study of meaning, and since meaning is a part of language, semantics is a part of linguistics. In addition, he states that meaning here covers a variety aspect of language and there is no general agreement about the nature of meaning, what aspect of it may properly by included in semantics, or the way in which it should be describes. In order the meaning to be successfully studied, of course, it must be made clear just what the meaning is. According to what has long been the most widely accepted theory of semantics, meanings are ideas or concept



that can be transferred from the mind of the speaker to the mind of the hearer by embodying them, as it were, in the form of one language or another. Because semantics deal with the meaning of language used by the people in order to convey their intended meaning of speaking, or message of a language used. Consideration of formulaic expressions in terms of semantics is of interest to further continuation of our research. Though there are various types of formulaic language, they can be included in the same groups. We find that it is more preferable to classify them in terms of different semantic fields. To be more exact, they are proverbs and idioms that are often used by people in certain situations. We often tend to give advice to someone through by utilizing them in our daily lives. We come across a lot of these set expressions in English but most of them cannot be known their expressed meaning by looking at the structure, so one should analyze the meaning of these formulaic expressions before using them. For this reason, we should begin by understanding the meaning of these two terms.

### **MATERIALS AND METHODS**

Proverbs, are considered one of the types of formulaic expressions, reflect the most powerful resources in language. They are defined as a short sentence that is mostly used to give advice to someone. Shaping the language figuratively and non-literally may touch a level beyond language itself. In fact, proverbs would be described as one of the most important utilizations in English getting an increased consideration at the basic levels of language understanding. In fact, they are the precious products of human thoughts, realities, attitudes, feelings and beliefs. The reason behind quoting various kinds of proverbs is to elaborate and enhance the validity that proverbs have indeed communicative significance and value when used in communication being an impressive and widely used tool of expression in language. According to Whiting, a proverb is “An expression which owing its birth to the people, testifies its origin in form and phrase. It expresses what a fundamental truth is apparently in a homely language, often ornamented, however, with alliteration and rhyme”.

Idioms are known as the main line of units of language. They exist at the different levels, beginning from words, finishing with steady combinations, being the proof that this characteristic is inherent in the majority of units of a lexicon of English. Idioms are defined as a phrase that comprises of its own meaning but this meaning cannot be understood if we translate word by word in language. The lexical idiom can have an appearance of a word or represent his lexico-semantic option having full or partial semantic integrity. It is specified in one of definitions of the term “idiom” that it is one of types of phraseological units. Idiomatic phrases are the peculiar expressions of the existing languages which are on the use integral and

uniform on sense, usually not giving in to exact transfer on other languages and demanding when translating replacements of similar stylistic coloring.

A wide range of proverbs, idioms are used in everyday life and they express different meaning such as life, family, friendship, wisdom, wealth, health, education and others. We will analyze these types of formulaic expressions in the following:

### **ANALYSIS**

**Proverbs about “Friendship”:** There a lot of proverbs about friends and friendship. As we know, having faithful friends is quite important in our lives and increases our chances of being happy. Additionally, friendship, a state of enduring affection, esteem, and trust between two people. In all cultures, friendships are important relationships throughout a person’s life span. We will give some examples of these set expressions related to the friendship in the below. For example: 1. “Prosperity makes friends and adversity tries them”. – Meaning: Prosperity attracts friends but you come to know who your real friends are only in times of adversity. 2. “A friend in need is a friend indeed”. – Meaning: Someone who helps you in difficult time is a true friend. 3. “Books and friends should be few but good”. – Meaning: If you have too many books, you cannot read them at all. If you have too many friends, you cannot find them to build deeper bonds with most of them. Therefore, have few but good friends. 4. “Lend your money and lose your friend. – Meaning: Lending money to a friend can lead to souring of friendship. If you ask you to repay, he may feel offended and if he fails to repay, you will be offended. 5. “Friendship is like money, easier made than kept”. – Meaning: It is relatively easier to reach a milestone than to hold on to it. It is easier to make money and friendship but difficult to keep them. You have to invest time and effort to nurture them.

**Proverbs about “Healthy lifestyle”:** There are more groups of proverbs which can be used in the situations connected with the healthy lifestyle and we mostly use them to describe healthy body and eating to keep fit. For example: 1. “You are what you eat”. – Meaning: If you eat healthy, you stay healthy. If you eat junk, you may develop health problems in the medium to long term. 2. “The best doctors are Dr. Diet, Dr. Quiet and Dr. Merryman”. – Meaning: To lead a healthy life, we need good diet (to beat poor eating habit), rest (to beat hectic work) and some enjoyment (to beat stress). 3. “After lunch, rest: after dinner, walk a mile”. – Meaning: After lunch take a rest to aid digestion since lunch is usually a heavy meal. After dinner, take a walk since it is usually a lighter meal. 4. “A good laugh and a long sleep are the best cures in the doctor’s book”. – Meaning: Laughter and adequate sleep are the best cures as well as preventions as they boost immunity and wellbeing; 5. “Health is not valued till sickness comes”. – Meaning: We go through robotically, not eating healthy and not exercising regularly, which inevitably leads to one or the other health problem. That is when we realize the importance of good health.

**Proverbs about “Happiness”:** These set expressions can be also used to say about happiness or to describe the condition of being happy. It is clear that happiness is emotional state characterized by feelings of joy, satisfaction, contentment and fulfillment. In fact, this emotional situation is expressed in the following proverbs. For instance: 1. “Being happy is better than being a king”. – Meaning: You may have all the riches and power of the world, but it is not of much use if are still unhappy. Some do not realize but it is true that money, fame and power do not necessarily bring happiness. 2. “Happiness is the best cosmetic”. – Meaning: If you happy, it will show on your face. You will glow. 3. “Self-love and body positivity”. – Meaning: Love yourself despite what others think about you is a must for your happiness. What is important is who you are as a person and not what you look like or what your background us. 4. “Live in the present”. – Meaning: Unless we are deeply engaged in something, we spend our time reminiscing past or planning for future. But life is in the present. Happiness is in savouring what is around. 5. “If you want happiness for an hour – take a nap. If you want happiness a day – go fishing. If you want happiness for a month – get married. If you want happiness for a year – inherit a fortune. If you want happiness for a lifetime – help someone else”. – Meaning: If you want happiness, help others. Research has clearly established the role helping others in enhancing own happiness.

**Proverbs about “Money”:** In our living different types of proverbs expressed money are used to express, save, earn it. Obviously, money is any object that is generally accepted as payment for goods and services and repayment of debts. There are illustrated examples of money in the below. For example: 1. “A penny saved is a penny earned”. – Meaning: Saving money is as good as earning money the net result is money is hand. 2. “Look after the pennies the pounds will look after themselves”. – Meaning: If you save small amounts regularly, you will have large sum in due course. 3. “Money talks”. – Meaning: Money can influence, make things happen. 4. “Money is a good servant but a bad master”. – Meaning: If you money and if you can put it to good use, then it is a good servant. But if you owe others money, it will control you and affect you adversely. 5. “Money cannot buy happiness”. – Meaning: More money does not translate into more happiness. We can buy every items such beautiful clothes, delicious meals, expensive houses or cars that we want but we cannot purchase happiness.

**Idioms about “Family”:** Here are some essential idioms for talking about family and other more complicated family matters. It is true that family, a group of people united by the ties of marriage, blood or adoption, constituting a single household and interacting with each other in their respective social positions. There are given common examples in the following idioms. For example: 1. “Like father, like son”. – Meaning: This idiom means that sons tend to be similar to their fathers.

We normally use this idiom to talk about personality, interests and character. For example: Jimmy is tall just like his father, and they have the same simile. Like father, like son”. 2. “The apple of one’s eye”. – Meaning: People use this idiom to talk about the most cherished or favourite family member such as a parent and child in a family. For example: Our grandson is the apple of our eye. We absolutely adore him”. 3. “Family man”. – Meaning: It describes a man who is devoted to his wife and children and enjoys spending time with them. For example: Carl never goes out with his coworkers after work. He is a true family man, and always rushes home to be with his wife and kids. 4. “Blood is thicker than water”. – Meaning: It means that relationships with family members are stronger and more important than relationships with people outside of the family. For example: Actually, Karen is going to side with her sister in this argument. Blood is thicker than water. 5. “A chip off the old block”. – Meaning: It means the person is very similar in character and personality to one of their parents. For example: Tiffany is an accomplished pianist just like her mother. She is a chip off the old block.

**Idioms related to “Education”:** Studying is very important in human life, especially in modern life of the people. They have many expressions which belong to education. Some of these set expressions in which each of them points to pronounced value are given below. For example: 1. “To pass with flying colours”. – Meaning: It means to accomplish something easily. We often use this expression to talk about tests or exams. For example: Sally managed to pass the exams with flying colours. 2. “To breeze/sail through”. – Meaning: This idiom describes to succeed at something. For example: “I do not think you will be able to breeze through college if you are majoring in chemical engineering”. 3. “A bookworm”. – Meaning: This is a type of person who loves to read. For example: My son is into sports and video games, but my daughter is more of a bookworm”. 4. “A class clown”. – Meaning: This is a type of idiom to describe a student who is a disruptive student who often makes jokes instead of paying attention and doing their work. For example: Brett is a college professor now. Ironically, he was the class clown of our elementary school. 5. “To hit the books”. – Meaning: It means to study very hard. For example: Finals are next week and I have not even started studying yet. I would better hit the books tonight.

**Idioms about “Job”:** There are various idioms expressing various types of job in the workplace. Here are some of the most common phraseological units depicted different occupation. For instance: 1. “Soft job”. – Meaning: This idiom describes a type of job that is relatively very easy to get around or complete. For example: Blowing up all the balloons at the party was a soft job for him. 2. “Snow job”. – Meaning: This idiom describes a type of job that involves concealing an individual’s real identity to try and frame or persuade someone into doing something on their behalf. For example: We are surely need to do a snow job on him, if he does

not keep his mouth shut. 3. “On the job”. – Meaning: This idiom describes a situation where an individual is currently working on a job. For example: I was on the job when you called; and I am sorry I did not pick up. 4. “Odd the job”. – Meaning: This idiom describes a type of job that is located in a deserted place and usually operates at odd hours. For example: He got his hands on an odd job and he does not want to leave because he needs money. 5. “Nine-to-five job”. – Meaning: This idiom describes a type of job in which an individual works from 9 to 5 pm in the evening. For example: I really want a nine-to five job so that I can work on another job later at night.

**Idioms about “Mood”:** It is apparent that there are a lot of idioms described mood in English. They express different kinds of feelings as well as emotions related to mood. For instance: 1. “On a cloud nine”. – Meaning: It means that he or she is feeling extremely happy. For example: When he finally proposed to her, she was on a cloud nine. 2. “Under the weather”. – Meaning: In English, people only tend to use this expression to describe being slightly sick rather than being seriously ill. For example: John’s feeling a bit under the weather tonight, so he will not be joining us for dinner. 3. “On pin and needles”. – Meaning: When people say they are on pin and needles, they are not talking about sewing or injections. It really means that they are feeling anxious or nervous. For example: The movie was so suspenseful, I was on pins and needles the whole time. 4. “Full of the joys of spring”. – Meaning: This idiom is used to express the mood of being energetic, cheerful and delight. For example: James must have had some good news, he is full of the joys of spring today. 5. “Happy camper”. – Meaning: This is said about a person who is completely satisfied with his life or with a certain situation in life. Everything is fine with him, he never complains, and he simply enjoys life. If the word “not” is added, it has the opposite meaning. For example: My friend just got a new job and also bought a new car. He is such a happy camper at the moment.

## RESULTS AND DISCUSSION

It can be seen in the above, every language has its own unique collection of formulaic expressions. These expressions contain meanings that may not be obvious by simply looking at the individual words. They express commonly shared or universal ideas related to people’s daily life. There are many concepts of various topics in linguistics and they also describe different conditions of our living. To be more clearly, proverbs are a bit of wisdom provided to people, while idioms are the phrases that have their own meanings to express any situations in life. The meanings of them cannot be understood by a common man. Both proverbs and idioms have deep and vivid meanings. Idioms and proverbs are unique cultural components of a language. They are fixed expressions that they are used in day to day communication and proverbs are characterized to give advice. They mostly come up all the time in

both written and spoken English. These English idioms and proverbs are familiar and easily understood by native English speakers, but they are not usually used in everyday conversation. The combinatory possibilities of words or multi-word chunks and expressions like proverbs and idioms help attaining automaticity and fluency in language, making the users sound natural. Idioms and proverbs in English are sets of words that have specific meanings, draw out the essence of the English culture. These types of formulaic expressions have some basic different meanings which provide a sense of deep thought and emotion. Therefore, it can be summarized that various types of formulaic expressions are characterized by the special features of semantics in linguistics.

### REFERENCES

1. Leech G. Semantics. – Harlow: Penguin, 1981.
2. Whiting, Bartlett J. Proverbs in Earlier English Drama with Illustration from Contemporary French Plays. – Cambridge Mass: Harvard University Press, 1983.
3. Fernando C. Idioms and idiomaticity. – Oxford: OUP, 1996.
4. Fraser B. Idioms within a transformational grammar. – Foundations of Language, 1970. – P. 22-42.
5. Gibbs R.W. Semantic analyzability in children’s understanding of idioms. – Journal of Speech & Hearing Research 34, 1991. – P. 613-620.
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## HARBIY KADRLARNI TAYYORLASHDA VATANPARVARLIK TARBIYASINING DOLZARBLIGI

(Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik - muhandislik bilim yurti misolida)

*Mirhamid Gafurovich Fayziyev*

*O‘zbekiston Milliy Universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi*

*boshlig‘ining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari,*

*Toshkent, O‘zbekiston*

*+ 998997120929*

### **Annotatsiya**

Dunyo shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bir sharoitda mintaqalar va mamlakatlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy kurash tobora keskinlashib bormoqda. Respublikamizda zamon talablariga javob beradigan raqobatbardosh, vatanparvar harbiy kadrlarni tayyorlash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, zamon talablariga javob beradigan raqobatbardosh, vatanparvar harbiy kadrlarni tayyorlash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada Vatan himoyasi, Qurolli Kuchlar uchun bir asrdan ortiq tarixga ega bo‘lgan “Chirchiq oliy harbiy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti”ning harbiy kadrlarni tayyorlashdagi hissasi qayd etilgan. Harbiy kadrlar tayyorlashda turli tarixiy davrlarda vatanparvarlik tarbiyasining dolzarbligi o‘rganildi va qiyosiy tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish rejalashtirildi.

**Kalit so‘zlar:** bilim yurti, fuqarolar urushi, qizil armiya, ulug‘ vatan urushi, vatanparvarlik, tank, kursant, Sovet Ittifoqi Qahramoni.

## АКТУАЛЬНОСТЬ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ПОДГОТОВКЕ ВОЕННЫХ КАДРОВ

(на примере Чирчикского высшего военного танкового  
командно-инженерного училища)

### **Аннотация**

В ситуации, когда мир стремительно меняется, политическая, экономическая и идеологическая борьба между регионами и странами становится все более и более напряженной. В нашей Республике подготовка конкурентоспособных и патриотичных военнослужащих, отвечающих требованиям времени, является одной из наиболее важных задач. В данной статье отмечен исторический вклад «Чирчикского высшего военного танкового командно-инженерного училища», имеющего вековую историю в подготовке военных кадров Вооруженных Сил по защите Родины. Изучено и сопоставлено

актуальность патриотического воспитания на различных исторических периодах в подготовки военных кадров, а также планирование разработки предложений и рекомендаций по их совершенствованию.

**Ключевые слова:** военное училище, гражданская война, Красная Армия, Великая Отечественная война, патриотизм, танкист, курсант, Герой Советского Союза.

## RELEVANCE OF PATRIOTIC EDUCATION IN MILITARY PERSONNEL TRAINING

(using the example of the Chirchik Higher Military  
Tank Command and Engineering School)

### Annotation

In a situation where the world is rapidly changing, the political, economic and ideological struggle between regions and countries is becoming more and more intense. In our Republic, training competitive and patriotic military personnel who meet the requirements of the time is one of the most important tasks. This article notes the historical contribution of the “Chirchik Higher Military Tank Command and Engineering School” which has a century-long history in training military personnel of the Armed Forces for the defense of the Motherland. The relevance of patriotic education in various historical periods in the training of military personnel has been studied and compared, as well as planning for the development of proposals and recommendations for their improvement.

**Key words:** military school, civil war, Red Army, Great Patriotic War, patriotism, tanker, cadet, Hero of the Soviet Union.

**Kirish.** Qurolli kuchlar uchun harbiy kadrlarni tayyorlash Mamlakat hayotidagi eng dolzarb masalalardan, ayniqsa, tobora rivojlanib borayotgan barcha sohalaridagi texnologiyalar, davlatlararo qurolli to‘qnashuvlar va mahalliy urushlar harbiy kadrlarni tayyorlashda o‘zining sezilarli ta‘sirini ko‘rsatishi harbiy ta‘lim va tarbiyaning ham sifat darajasini oshirishga, vatanparvar harbiy kadrlarni etishtirib chiqarishga zamin bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda, davlat rahbari boshchiligidagi O‘zbekiston hukumatining oldida turgan muhim vazifalardan biri Mamlakat tinchligi va xavfsizligini to‘la to‘kis ta‘minlay oladigan Qurolli kuchlarga ega bo‘lishdan iborat. Qurolli kuchlar safida xizmat vazifasini o‘tayotgan shaxsiy tarkibning ongida chin ma‘nodagi vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish maqsadida jahon sivilizatsiyasida o‘zlarining munosib xizmatlari bilan tanilgan buyuk sarkarda bobolarimiz, shuningdek, O‘zbekiston mustaqillikka erishish davrida qahramonlik namunalarini ko‘rsatgan harbiy xizmatchilarning bosib o‘tgan jangovar, shonli yo‘llarini o‘rganish



harbiy kadrlarni tayyorlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Davlatimiz rahbari, vatanparvarlik tushunchasiga to‘xtalib, “Barchamizga yaxshi ma’lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi” deb ta’kidlagan edi<sup>1</sup>. Yoshlar, bo‘lajak vatan himoyachilarining qalbida o‘z Vatanga, xalqi va millatiga, o‘z tug‘ilib o‘sgan go‘shasiga nisbatan mehr muhabbat tuyg‘usini uyg‘otib, uni yanada kuchaytirish, hozirgi kunning kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifasi hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi, Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti tashkil etilish tarixini, turli davrlarda yuzaga kelgan harbiy siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida harbiy ta’lim muassasasi o‘quv jarayonini zamon talablariga mos ravishda o‘zgartirib borilganini, davlatlararo urushlar, mahalliy qurolli to‘qnashuvlarda muassasa bitiruvchilarining jalb etilganligi va ularning ko‘rsatgan qahramonliklarini o‘quv adabiyotlari, ijtimoiy tarmoq materiallari hamda bir safda xizmat vazifasini o‘tagan harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar faxriylari bilan muloqot qilish orqali olingan ma’lumotlar asosida yoritishdan iborat.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)**

Bilim yurti, Gorkiy piyodalar maktabi sifatida o‘z faoliyatini dastlab 1918 - yil 18-oktyabrda boshlagan. Ushbu bilim yurtining ilk kursantlari «Красное Сормово» zavodining yosh ishchilaridan iborat bo‘lib, o‘qituvchilar tarkibi esa jangovar tajribaga hamda harbiy mutaxassislikka ega bo‘lgan rus podsholik armiyasining generallari I.Jilinskiy, B.Moravskiy, K.Bussovlar bo‘lgan. Kursantlar bilan o‘quv jarayonini tashkil etish rejasiga ko‘ra o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan amaliyot bevosita fuqarolar urushining frontning jangovar harakatlar olib borilayotgan hududlarida amalga oshirilgan. 1919-yilning yozida Janubiy frontda Qizil komandirlarning ilk bitiruv tadbirlari bo‘lib o‘tgan. Bitiruvchilardan F.Smexotvorov, M.Kraynov, P.Berezin, I.Xoxlov, T.Dudorov, G.Zaysev, I.Komarovlar keyinchalik general mayor, kursantlar vzvodining komandiri M.Volkov esa tank qo‘shinlari general leytenanti harbiy unvonini olishga muvaffaq bo‘lgan. “Gorkiy piyodalar maktabi” sifatida o‘z faoliyatini olib borayotgan bilim yurtining nomi 1921-yilga kelib “Nijegorodskiy piyodalar maktabi”ga o‘zgartirilgan, hamda ushbu bilim yurtida Qizil Armiya uchun kichik komandirlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan, o‘qish muddati esa 3-yilgacha uzaytirilgan. 1924-yilning 22-sentyabrda ushbu ta’lim muassasasiga 1922-1925-yillar davomida Rossiya (bolsheviklar) kommunistik partiyasi bosh kotibi lavozimida faoliyat olib borgan davlat arbobi I.V.Stalin (Iosif Vissarionovich Djugashvili) nomi berilgan<sup>2</sup>. Bilim yurti 1932-yilning 15 - martida qayta tashkil etildi va u “Stalin nomidagi Gorkiy

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi 2020 yil 24 yanvar.

<sup>2</sup> (<https://ria.ru/20130305/925746620.html>)

zixli texnikalar maktabi” nomini oldi. Bilim yurtida yangicha o‘quv moddiy-texnik baza, tankodrom, avtodrom, tanklar uchun poligonlar qurildi. Kursantlar mahobatli mashinalarni o‘rganishni boshladi. Maktabda birinchi bo‘lib tashkil etilgan tank batalonira M.Teryoxin komandir etib tayinlangan edi, keyinchalik u tank qo‘shinlari general – leytenanti hamda Sovet Ittifoqi Qahramoni unvonlarini olishga munosib deb topilgan. 1938–1940-yillar davomida esa Toshkent harbiy tankchilar bilim yurtining boshlig‘i sifatida faoliyat olib borgan. Zixli tank qo‘shinlari ofitserlarining birinchi bitiruv tadbiri 1934-yilning kuz faslida bo‘lib o‘tdi. Ushbu tadbirda Ispaniyada bo‘lib o‘tgan janglarda qahramonlik ko‘rsatganligi uchun tankchilar tarixida birinchi bo‘lib Sovet Ittifoqi Qahramoni unvonini olishga sazovor bo‘lgan bitiruvchi leytenant G.Skleznyov, Sovet Ittifoqi Marshali, Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqining mudofaa vaziri leytenant S.Sokolovlar ham safda turgan edi. Georgiy Mixaylovich Skleznyov 1911-yilning 20-yanvarida Gomel shahrida xizmatchi oilasida tug‘ilgan, millati Belarus. 1929-yilda o‘rta maktabni tugatgan. 1931-yilning sentyabr oyida Moskva shahridagi Bauman oliy texnika bilim yurtiga o‘qishga kirgan va unda bir yil davomida o‘qishni davom ettirgan. 1932-yilning may oyida Qizil Armiya safiga xizmatga chaqirilgan va maxsus saralashdan muvaffaqiyatli o‘tganidan keyin “Nijegorodskiy tankchilar bilim yurti”ga yuborilgan, ushbu bilim yurtini 1934-yilda tamomlagan. Skleznyov Ispaniyada bo‘lib o‘tgan fuqarolar urushi qatnashchisi, 1937-yilning 27-iyunida Sovet Ittifoqining Mudofaa salohiyatini mustahkamlash hamda qo‘yilgan maxsus vazifalarni vijdonan namunali tarzda bajarishda ko‘rsatgan qahramonligi uchun kapitan Georgiy Mixaylovich Skleznyovga Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi markaziy ijroiya komitetining qarori bilan Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berilgan. Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni-Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqidagi eng yuqori va oliy unvon bo‘lib harbiy harakatlarda, tinchlik davrida ko‘rsatgan qahramonliklari hamda el-yurt oldidagi buyuk xizmatlari uchun fuqarolarni taqdirlash uchun mo‘ljallangan. Ushbu oliy unvon birinchi bo‘lib 1934-yilning 20-aprelida, oxirgisi esa 1991-yilning 24-dekabrda berilgan, xuddi shunday maqomga Rossiya Federatsiyasi Qahramoni unvoni ega bo‘lgan.

Afanásiy Pavlántevich Beloboródov (1903-yil 18 (31) yanvarda, Irkutsk guberniyasida tavallud topgan — 1-sentyabr 1990 -yil 1-sentyabr kuni Moskva shahrida vafot etgan) — harbiy sarkarda, armiya generali (1963), ikki marotaba Sovet Ittifoqi Qahramoni (1944, 1945), Toshkent tankchilar bilim yurti bitiruvchisi. Sergey Leonidovich Sokolov 1911-yilning 18-iyunida Yevpatoriya shahrida xizmatchi oilasida dunyoga kelgan. 1932-yildan boshlab Qizil Armiya saflarida xizmat qilishni boshlagan. 1934-yilda Gorkiy zixli tank bilim yurtini tugatgan. 1984-yildan 1986-yillargacha bo‘lgan davrda S.L.Sokolov sovet sotsialistik respublikalari ittifoqining mudofaa vaziri lavozimida faoliyat olib borgan.



Afanásiy Pavlántevich  
Beloboródov



Sergey Leonidovich Sokolov

S.L.Sokolov Sovet Ittifoqi Qahramoni, 3 marotaba Lenin ordeni, 1-darajali Suvorov ordeni, ikki marotaba Qizil Bayroq ordeni, Jukov ordeni, ikki marotaba Qizil Yulduz ordeni, uchinchi darajali “vatan oldidagi xizmatlari uchun” ordeni, “Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi Qurolli Kuchlar safida Vatanga xizmat qilish” ordeni, SSRLar Ittifoqi hamda xorijiy davlatlar medallari bilan taqdirlangan. 1935-yilga borib 700 nafar kursantlarni T-26 rusumli tanklarda leytenant-vzvod komandiri lavozimiga tayyorlash uchun o‘qitilgan. 1937-yil 16-martdan boshlab ushbu maktabning nomi “Stalin nomidagi Gorkiy zirxli tank ta’lim muassasasi”ga o‘zgartirildi. 1938-yilning martida ta’lim muassasasi Xarkov shahriga ko‘chirildi va unga “Stalin nomidagi Xarkov zirxli texnikalar harbiy bilim yurti” nomi berildi. Ushbu bilim yurtining bitiruvchilari Hasan ko‘li, Xalxin-Gol va Fors ko‘rfazidagi bo‘lib o‘tgan qurolli to‘qnashuvlarda ishtirok etdilar. 1940-yilning sentyabr oyidan boshlab yangi tuzilgan 17/936 shtat mutaxassisligi bo‘yicha T-34 rusumli va T-26 rusumli tanklar uchun (har birida ikkitadan batalon) ofitserlarni chiqara boshladi. Ushbu davrga kelib ta’lim muassasasining o‘zgaruvchan tarkibi soni 1600 nafarga etgan edi. 1941-yilning iyul oyida ta’lim muassasasining bitta bataloni mayor Grishin qo‘mondonligi ostida (29 dona T-34 rusumli va 4 dona KV rusumli tank bilan) 14-tankchilar diviziyasi tarkibida G‘arbiy frontga harbiy harakatlarda ishtirok etish uchun safarbar qilingan. 1941-yilning 22-sentyabrida bilim yurti Ukrainaning Xarkov shahridan Toshkent viloyatining Chirchiq shahriga evakuatsiya qilingan, hamda uning nomi “Toshkent harbiy tankchi komandirlar bilim yurti”ga o‘zgartirilgan. Bilim yurti to‘liq joylashishga ulgurmasdan ko‘chib kelganidan ikki oy vaqt o‘tib, navbatdagi tank-komandirlari harbiy ixtisosligi bo‘yicha mutaxassislar chiqarilgan. Shafqatsizlarcha davom etayotgan urush, kichik komandirlarning bo‘shab borayotgan o‘rnini uzluksiz

ravishda to‘ldirib borishni taqoza qilar edi. Ushbu bo‘sh o‘rinlarni o‘z vaqtida to‘ldirish maqsadida bilim yurtida o‘qish muddati 6 oydan 9 oygacha bo‘lgan muddatga qisqartirilgan edi. Qanchalik murakkab va mashaqqatli bo‘lmasin baribir g‘alaba kuni etib keldi. Uning etib kelishiga Toshkent tankchilar bilim yurtining bitiruvchilari o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar.

### **Tadqiqot metodoliyasi (Research Methodology)**

Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti faoliyatini o‘rganish uchun olib borilgan tadqiqotlar natijasida 1918-1945-yillar davomida sobiq Sovet Ittifoqi va dunyoda yuzaga kelgan harbiy siyosiy vaziyat natijasida sodir bo‘lgan qurolli to‘qnashuv va mahalliy urushlar uchun harbiy kadrlarni tayyorlash asosan vaziyatdan hamda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan. ДУНИДАГИ ИККИ ХАРБИЙ-СИЙОСИЙ КОАЛИТСИЯ О‘RTASIDAGI KURASH OXIR OQIBATDA INSONIYAT TARIXIDAGI ENG KATTA FALOKATGA SABAB BO‘LGAN IKKINCHI JAHON URUSHNING BOSHLANISHIGA OLIB KELDI. Ushbu urushda 61 mamlakat qatnashgan bo‘lib ularning 37 tasi harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etgan mamlakatlar butun er sharining 80% ini qamrab olgan. Harbiy harakatlar 40 ta mamlakat hududida bo‘lib o‘tgan qurolli to‘qnashuvlarda Toshkent harbiy tankchi komandirlar bilim yurti Ulug‘ Vatan urushi yillari mobaynida 7000 mingdan ortiq tankchi-komandirlarni tayyorlab berdi. Ushbu davrga kelib Ittifoqda harbiy bilim yurtlarining soni 147 taga etgan edi. 1943-yilning 2-sentyabrida Toshkent harbiy tankchi komandirlar bilim yurti “zirxli tank va mexanizatsiyalashgan harbiy qismlar uchun ofitser kadrlarni tayyorlashdagi erishgan yutuqlari, Vatan oldidagi jangovar hamda buyuk xizmatlari uchun” Mamlakatning eng oliy mukofoti hisoblangan Lenin ordenini olishga muvaffaq bo‘lgan yagona bilim yurti hisoblanadi. Ushbu sanada bilim yurti tashkil etilganligiga ham 25 yil to‘lgan edi. Ulug‘ Vatan urushining Jangovar vaziyatlarida ko‘rsatgan jasoratlari uchun ushbu ta‘lim muassasasining 74 nafar bitiruvchisi Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovar bo‘lishdi. Vasiliy Ivanovich Novikov (16 aprel 1921-21 fevral 1945 yil) 1921 yilning 16 aprelida Moskva viloyati Pushkin tumani Lepyoshki qishlog‘ida tug‘ilgan. 1945 yilning 19 yanvar kuni Velyun shahri uchun bo‘layotgan janglarda dushman tomonidan berilgan zarba Novikov jang qilayotgan tankka sezilarli darajada talofat etkazdi va tank komandiri juda og‘ir holatda gospitalga jo‘natildi. 1945 yil 21 fevralda olingan jarohatlar oqibatida 24 yoshida hayotdan ko‘z yumdi. 1945 yilning 10 aprelida Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi Oliy Soveti Prezidiumining qaroriga ko‘ra gvardiyachi leytenant Vasiliy Novikov (marhum)ga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi. Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovar bo‘lgan bitiruvchilarning 5 nafari G. Skleznyov, V. Shalandin, V. Kraev, I. Konorev, N. Malyugalar harbiy qism shaxsiy tarkibining ro‘yxatiga abadiy kiritildi. 1946 yilda bilim yurti kursantlari bilan olib boriladigan mashg‘ulotlar qisqartirilgan muddatdan ikki yillik muddatga o‘tkazildi. Keyingi yili

urushdan keyingi birinchi marta yosh ofitserlarning oliy ta’lim muassasasini bitiruv tantanasi bo’lib o’tdi. 1949 yilda Toshkent tankchilar bilim yurtida ikkita tarixiy voqea yuz berdi, bular ta’lim muassasasining zirxli tank ta’lim muassasalari ichida o’quv jarayoni bo’yicha erishgan natijalari uchun birinchi o’rinni egallashi hamda ta’limning uch yillik muddatga uzaytirilganligi. 1961 yilning dekabr oyida bilim yurtiga ikki marta Sovet Ittifoqi Qahramoni unvonini olishga musharraf bo’lgan zirxli tank qo’shinlar marshali Pavel Syomenovich Ribalko nomi berildi. 1966 yilning aprel oyidan boshlab jangovar texnikalarning takomillashuvi hamda ofitser kadrlarni tayyorlashga bo’lgan talabning oshib borishi natijasida 4 yillik ta’limga o’tildi.



Шаландин Волдемар Сергеевич



Конорев Иван Алексеевич

O’quv dasturlari tubdan o’zgartirildi. natijada ta’lim muassasasini tugatgan bitiruvchi ofitserlar leytenant unvonini oliy harbiy maxsus ma’lumotga ega bo’lganligi to’g’risida diplom va injenerlik mutaxassisligiga ega bo’lishdi. Insonlarning boshiga tushgan turli xil ofatlar, Armanistondagi kuchli er silkinishlari, Uzoq Sharq hududida yuzaga kelgan suv toshqinlari, 1966 yilning aprel oyida kuchli er silkinishlari natijasida Toshkent shahrining 75 foiz aholisining boshpanasiz qolishi, tabiiy ofatlar va katastrofalarni bartaraf qilish bo’yicha harbiylar, jumladan Toshkent bilim yurti kursantlari va ofitserlari ishtirok etib kelishgan. 1945 yildan keyingi davr urushdan keyingi davr deb yuritilsada, lekin harbiylar turli xil qurolli to’qnashuvlar, mahalliy urushlarda ishtirok etib kelganlar. Afg’oniston Demokratik Respublikasi hudidida juda uzoq yillar davom etgan qurolli to’qnashuvlar davomida bilim yurti bitiruvchilari o’zlarining baynalminal burchlarini a’lo darajada bajarganliklari uchun Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo’lishdi, bular Sovet Ittifoqi marshali S. Sokolov, general-polkovnik Ye. Vysoskiy, general-mayor V. Karpuxin, polkovnik F. Pugachyov. Shuningdek, ko’plab bitiruvchilar “Qizil Bayroq” va “Qizil Yulduz”

jangovar ordenlarini olishga loyiq deb topildi<sup>3</sup>. Bilim yurti o‘zining faoliyati davomida qo‘yilgan o‘quv jangovar va jangovar vazifalarni to‘la-to‘kis bajarib, Qurolli Kuchlar uchun etuk mutaxassis qo‘mondon kadrlarni tayyorlab kelgan. Bilim yurti bitiruvchilarining “qaynoq nuqtalar”da olib borilgan jangovar harakatlarda ishtirok etib ko‘rsatgan qahramonliklari buning yorqin dalili bo‘lib xizmat qiladi. Shimoliy Kavkazda terrorchilarga qarshi o‘tkazilgan operatsiyalar davomida ko‘rsatgan qahramonliklari uchun bilim yurtining 6 nafar bitiruvchisiga Rossiya Qahramoni unvoni berilgan, bular general-polkovnik V. Bulgakov, general-polkovnik V. Shamanov, general-leytenant M. Ashurov, polkovnik Z. Ivanov, mayor S. Kurnosenko, katta leytenant S. Firsovlar. Bundan tashqari bilim yurtining 250 nafardan ortiq bitiruvchilari general unvoniga ega bo‘lishdi bular armiya generallari A. Beloborodov, A. Gribkov, V. Arxipov, V. Shuralyov, general pokovniklar V. Moltenskoy, B. Shein, N. Zvinchukov, Yu. Bukreev, general leytenantlar V. Borjko, V. Konstantinov, Ye. Churaev, A. Osetrov, Yu. Бычков, S. Skokov, A. Xrulyov, V. Rojko, V. Afonin va boshqalar. Uzoq yillar davomida harbiy akademiyada tinglovchilarga dars bergan pedagog ofitserlar sovet ittifoqi qahramoni, tank qo‘shinlari general-mayori F. Loxmatikov, general-mayor A. Beregovoy, general-mayor B. Suvorov, polkovnik A. Bolotov, polkovnik A. Yelizarlar ham turli xil davrlarda Toshkent harbiy tank qo‘mondonlik bilim yurtining bitiruvchilari bo‘lishgan. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishish yillaridan hozirgacha bo‘lgan davr ichida Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti bitiruvchilari turli xil lavozimlarda faoliyat olib borib mamalakatimiz mudofaa salohiyatini oshirishda o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. General polkovnik Rustam O‘rmonovich Axmedov, 1991 yilning 6 sentyabridan 1997 yil 29 sentyabrigacha O‘zbekiston respublikasining birinchi Mudofaa vaziri, 1997 yildan 2000 yilgacha O‘zbekiston favqulodda vaziyatlar vaziri lavozimlarida faoliyat olib borgan. Harbiy xizmatni 1962-1965 yillarda Toshkent oliy tank qo‘mondonlik bilim yurtida kursant lavozimida boshlagan. General mayor Aleksandr Vladimirovich Shishlyannikov 1993 yilning yanvar oyida Tojikiston Respublikasining birinchi mudofaa vaziri lavozimiga tayinlangan va ushbu lavozimda 1995 yilning 7 aprelegacha faoliyat olib borgan. 1971 yilda Toshkent oliy tank qo‘mondonlik bilim yurtini bitirgan.<sup>4</sup>

---

<sup>3</sup> "Герои огненных лет. Книга 3", Москва, 1978, с. 232-237., "Герои Советского Союза - узбекистанцы", Ташкент, 1984.

<sup>4</sup> [CHAPTER TWO Consolidating a Weak State after Civil War: A Tajik Fable.](#)



Ахмедов Рустам  
Ўрмонович



Александр Владимирович  
Шишлянников

General polkovnik Tursunov Hikmatulla Kuchkarovich 1997 yilning 29 sentyabridan 2000 yilning 20 fevraligacha O‘zbekiston respublikasining Mudofaa vaziri lavozimida faoliyat yuritgan. 1977 yilda Toshkent oliy tank qo‘mondonlik bilim yurtini bitirgan. Mahmudjon Jalilov 1975-yil 6-iyunda Andijon viloyatining Izboskan tumanida tug‘ilgan. 1993-yilda harbiy litseyni, 1997-yil Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtini tamomlab, ofitser sifatida Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida xizmat qilgan. 2000-yil 1-avgustda Surxondaryo viloyatining tog‘li hududlarida xalqaro terrorchi jangari to‘dalarga qarshi kurashda qahramonlarcha halok bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 25-avgustdagi Farmoniga ko‘ra, mamlakatimiz sarhadlari daxlsizligini va milliy xavfsizligini ta‘minlashda mardlik, jasorat va fidoyilik namunasini ko‘rsatgani uchun Mahmudjon Jalilov vafotidan so‘ng II darajali «Shon-sharaf» ordeni bilan mukofotlangan. Asilbek Mirzayev 1976-yil 30-martda Andijon viloyati Chinobod shahrida tug‘ilgan. 1997-yilda Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtini bitirib, Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida ofitser sifatida xizmatni boshlagan. 2000-yil 16-sentabrda Surxondaryo viloyatining tog‘li hududlarida xalqaro terrorchi jangari to‘dalarni qidirish va ularni yo‘q qilish bo‘yicha desant-ishg‘ol harakatlarini bajarayotgan vaqtda jangda qahramonlarcha halok bo‘lgan. Shuhratbek Sobirov 1975-yilda Andijon viloyati Izboskan tumanida tug‘ilgan. 1990-yilda tumandagi 2-umumta‘lim maktabini bitirib, Farg‘ona shahridagi harbiy litseyda tahsil olgan. 1993-1997 - yillarda Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurtida o‘qigan. Sh. Sobirov harbiy-desant qo‘shinlari taktik qo‘mondonligi mutaxassisligi bo‘yicha xizmatni boshlab, parashutchi

desant alohida batalyoni komandirining o‘rinbosari lavozimiga tayinlangan. 2000-yildan boshlab Davlat xavfsizlik xizmati chegara qo‘shinlari safida xizmat qila boshlagan. 2000-yil 17-avgust kuni Sh. Sobirov mamlakatimizga suqilib kirgan jangarilar to‘dasiga qarshi lib borilgan jang vaqtida mardlarcha halok bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 30-avgustdagi Farmoniga ko‘ra mamlakatimiz sarhadlari daxlsizligini va milliy xavfsizlikni ta‘minlashda mardlik, jasorat va fidoyilik namunasini ko‘rsatgani uchun Shuhratbek, Sobirov vafotidan so‘ng «Jasorat» medali bilan mukofotlangan<sup>5</sup>.

### **Tahlil va natijalar (Analysis and results)**

Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti tashkil etilishi va rivojlanish jarayoni bir asrdan ortiq tarixga ega bo‘lib uni shartli ravishda quyidagi davrlarga, ya‘ni I davr 1918 - 1938 yillar oralig‘i, II davr 1939 - 1945 yillar oralig‘i, III davr 1946 - 1966 yillar oralig‘i, IV davr 1967 - 1990 yillar oralig‘i, V davr 1991 - 2001 yillar oralig‘i, VI davr 2001 yildan hozirgi kungacha bo‘lgan tarixiy voqealar ushbu davrda yuzaga kelgan harbiy siyosiy vaziyat, bilim yurtining Vatan himoyasi va qurolli kuchlar uchun harbiy kadrlarni tayyorlash yo‘lida olib borgan samarali mehnatining natijalarini qiyosiy tahlil qilish maqsadida bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq.

### **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)**

Harbiy kadrlar tayyorlash tizimini dunyo miqyosida va mamlakatda ro‘y berayotgan harbiy siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda, ayniqsa davlatlararo va mahalliy urushlar tajribalarini tahlil qilish natijalari asosida tizimli ravishda takomillashtirib borish, maktab, kolledj, litsey va oliy ta‘lim muassasalarining qurolli kuchlar uchun harbiy kadrlarni tayyorlash bo‘yicha faoliyat olib borayotgan harbiy oliy ta‘lim muassasalari, harbiy qism va bo‘linmalar bilan hamkorligini yanada kuchaytirish ayniqsa harbiy ta‘lim muassasalari bitiruvchilari, harbiy qism shaxsiy tarkibining mustaqillik yillari, mahalliy qurolli to‘qnashuvlarda ko‘rsatgan qahramonliklari, turli xil musobaqalarda erishgan rekord natijalarini aks ettiruvchi ma‘lumotlardan foydalanilgan holda hamda qahramonlar bilan yuzma-yuz uchrashuvlar tashkil etgan holda ma‘naviy marifiy tadbirlar tizimini takomillashtirib borish. Yosh avlodga, davlat rahbarining ta‘biri bilan aytganda, “har bir davlat hayotining ma‘naviy asosi hisoblangan va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch” bo‘lgan vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirib borish, yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning bardavom bo‘lishligi uchun barcha mavjud imkoniyatlarni ishga solish.

---

<sup>5</sup> Mard o‘g‘lonlar nomi barhayot [Matn]: kitob. - Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2018.- 560 b



**Adabiyotlar va axborot manbalari**

1. Герои Советского Союза: Краткий биографический словарь / Пред. ред. коллегии И. Н. Шкадов. — М.: Воениздат, 1988. — Т. 2 /Любов — Ящук/. — 863 с. — 100 000 экз. — ISBN 5-203-00536-2.
2. "Герои огненных лет. Книга 3", Москва, 1978, с. 232-237.
3. "Герои Советского Союза - узбекистанцы", Ташкент, 1984.
4. Горбачева Г. М. "С комсомолским билетом у сердца", Москва, 1985, с. 31-33.
5. "Танкисты в боях за Родину", Москва, 1965, с. 40-43
6. Шумилов В. Е. "Раздуме у рейхстага", Воронеж, 2000, с. 46-52.
7. Mard o'g'lonlar nomi barhayot [Matn]: kitob. - Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2018.- 560 b
8. <https://www.uza.uz>

## O'TKIR HOSHIMOVNING SHAXSIY HAYOTI VA FAOLIYATI

*Abdimo'minova Shohida*

*Termiz Davlat Universiteti, Filalogiya va tillarni o'qitish  
(Ingliz tili) yo'nalishi, 4-kurs talabasi.*

*Husniddin Suvonov*

*Termiz Davlat Universiteti, Adabiyotshunoslik  
fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Bu maqola O'tkir Hoshimovning shaxsiy hayoti, ijodiy faoliyati, va uning yaratgan eng mashhur asarlari haqida tushuncha beradi. Hoshimovning milliy-ma'naviy mavzular, ijodiy tarz va uning o'zining jamiyatga ta'siri haqida muhokama qiladi. Maqola asosan qisqa va maqbul ma'lumotlar beradi, uning hayot va ijodiy yutuqlarini tushuntiradi.

**Kalit so'zlar:** shoir, yozuvchi, asarlar, milliy-ma'naviy mavzular, ijodiy tarz, jamiyatga ta'sir, hayot, ijodiy yutuqlar.

O'tkir Hoshimov 1941 yil Toshkent viloyatining Zangiota (hozirgi Chilonzor) tumanidagi Do'mbiravot mavzeida tug'ildi. O'. Hoshimov mehnat faoliyatini erta boshladi. Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) ning jurnalistika kulliyotida o'qish bilan baravar gazeta tahririyatida ishladi. 1959 yildan 1963 yilgacha "Temiryo'lchi", "Qizil O'zbekiston", "Transportniy rabochiy" gazetalarida xat tashuvchi, mussaxhih, tarjimon bo'lib ishladi. So'ng "Toshkent haqiqati" gazetasida adabiy xodim (1963-1966), "Toshkent oqshomi" gazetasida bo'lim mudiri (1966-1982), G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida bosh muharrir o'rinbosari (1982-1985) bo'ldi. 1985-1995 yillarda "Sharq yulduzi" jurnaliga bosh muharrirlik qildi. 1995 yildan 2005 yilgacha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Matbuot va axborot qo'mitasi raisi lavozimida ishladi. 2005 yildan "Teatr" jurnalida bosh muharrir bo'lib ishladi.

Bu ritorik jihatdan jozibali *reductio ad absurdum*, o'ziga xoslik va kanonik adabiyot asarlarini chaqirishni birlashtirgan holda, Twitterda keng iqtibos keltirildi va Deul tomonidan ilgari surilgan asl dalillarni almashtirib, dastlabki yangiliklar hisobotida aniq bo'lgan hikoyaning ramkalarini mustahkamlashga hissa qo'shdi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu qayta ishlash Deulning fikr-mulohazalarini taqdim etish bo'yicha yangiliklar bo'limi qarorlarida allaqachon boshlangan. Kotze ( Iqtibos 2021c ) aytib o'tganidek , Deul tomonidan taklif qilingan asl sarlavha "Tepalik emas, yorug'lik bo'l" (ingliz tilida, Gormanning she'ridan keyin) edi. Gazeta o'rniga " Een " ni tanladi aqlli vertaler voor poëzie van Amanda Gorman: Onbegrijpelijk [Amanda Gorman she'riyatining oq tarjimoni: tushunarsiz]" - asarning ramkasini asosan irqiy qarama-qarshilik nuqtai nazaridan harakatga keltiradi.

Ushbu yangiliklar hisobotlarini almashish oy davomida tez-tez bo'lib qolsa-da, shu jumladan Barrios ( Citation 2021 ) va Malik ( Citation 2021 ) tomonidan Gollandiyaga yo'naltirilgan fikr-mulohazalar (ma'lumotlar to'plamida mos ravishda 35 va 15 ta ulush), u o'zgarib turadi oy davomida chuqur tahliliy maqolalar va tergov jurnalistikasi, ko'pincha turli tarjimonlar va olimlar bilan intervyularni yoritib, tarjima bo'yicha bahsli fikrlarni o'rganadi. Ushbu tahlil qismlarini almashish mart oyining oxirida va aprel oyining boshida tvit faolligining keskin o'sishiga olib keladi (1-rasmga qarang). Oxir oqibat, ma'lumotlar to'plami shuni ko'rsatadiki, mart oyida ushbu tahlil qismlari Obiols va Rijnevelddagi reportaj qismlaridan ko'ra ko'proq taqsimlanadi, 1055

ta tahlil qismlari va 857 ta yangiliklar hisobotlari. Bu oyda eng ko‘p baham ko‘rilganlar *The New York Times* (Marshall Citation 2021 , 403 ta aktsiya), *Los Angeles Times* (Pineda Citation 2021, 169 ta aktsiya), *The Washington Post* ( Bhanoo ) gazetalaridagi tahlillardir. Iqtibos 2021, 160 ta aktsiya) va Kotzening *Medium* bo'yicha tahlili ( Kotze) Iqtibos 2021a , 97 ta aktsiya). Boshqa tillardagi gazetalardan tahliliy parchalar kamroq tarqatiladi va Twitterdagi ingliz tilidagi munozaralar asosan ingliz tilidagi ommaviy axborot vositalarida bo'lgan ko'rinadi. Ma'lumotlar to'plamida 10 martadan ko'proq baham ko'rilgan boshqa tildagi yagona tahlil maqolasi - bu *Der Spiegel jurnalida* 43 ta aktsiyaga ega Jon Makvorter ishtirokidagi maqola ( Pfister Iqtibos 2021 ). Markowiczning maqolasi (Citation 2021 ) *Le Monde -da* 8 marta, boshqa barcha ingliz tilidagi bo'lmagan maqolalar esa bir necha marta baham ko'rilgan. Umuman olganda, vaqt o'tishi bilan yanada muvozanatli, ko'proq polifonik va nozik nutqqa o'tish sodir bo'ladi: munozarani deyarli faqat irq nuqtai nazaridan tashkil etadigan dastlabki qismlardan va "ruxsat etilgan" yoki "qodir bo'lish" nuqtai nazaridan. ' tarjima qiling (qarang Kotze Iqtibos 2021a ; Kotze va Strou Iqtibos 2021 ), tarjima jarayonida o'ziga xoslik qanday namoyon bo'lishi bilan bir qatorda til sanoatida xilma-xillik yo'qligi haqidagi savollarni batafsil tahlil qiladiganlarga.

Tarjimon va tarjimaning bir nechta qarashlari bu erda birlashadi. Beyker ( Citation 2005 ) xolis tarjimonning tanqidiy baholanishi deb atagan narsaning aks-sadolari bor , bu tarjimon nuqtai nazariga va tarjimaning o'ziga xos madaniy va ijtimoiy kontekstdagi har qanday o'zaro bog'liqlikdan oshib ketadigan nuqtai nazariga, tarjimonning nuqtai nazariga asoslangan . estetikashtirilgan madaniy uyg'unlikning poetik idealini amalga oshiruvchi rassom sifatida ( Timochko) Iqtibos 2003 ). Tarjimaning moddiyligi va tarjimonlarning ijtimoiy singdirilishiga e'tibor qaratish orqali ushbu idealga qarshi chaqiruvlar bir vaqtning o'zida transsendent tarjimonning qurboni bo'lish va tarjimonning tarjima qilish huquqini muqaddaslovchi sifatida ko'rilgan muallifning obro'-e'tiborini buzish sifatida talqin etiladi.

Kronin (Kronin va Delgado Luchnerda Iqtibos 2021, 95) tarjimonning xolis, “yuqorida” ijtimoiy singdirilganlik sifatidagi bu qarashi tarjimaning elita qarashi ekanligini ta'kidlagan: “Holislik tushunchasi ozchiliklar bilan juda bog‘langan – boy Uayt ma’nosida. Odamlar bir-biri bilan gaplashadi. Bu sayyoradagi ozchilik tajribasi, ammo u universallashtirdi. Ko'rinib turibdiki, tarjimon va tarjimaning universallashtirilgan va universallashtiruvchi nuqtai nazari Twitterda foydalanuvchilarning o'ziga xos identifikatsiya konstruktsiyalarining bir qismi sifatida ham qo'llaniladi. Loffreda va Rankine ( Iqtibos 2016 , 15) irq, jins, sinf - hayot tajribasining moddiy jihatlari bilan cheklanmagan tasavvur tushunchasining asosiy kamchiligini ta'kidlaydilar :

**Xulosalar.** Ushbu maqolada men "tarjimon" va "tarjimon" ijtimoiy tarmoqlarda ma'lum moddiy (texnologik va algoritmik) cheklovlar va imkoniyatlarga ega bo'lgan

bo'shliqlar sifatida qanday yaratilganligini o'rganishning mantiqiy asoslarini va asoslarini bayon qildim. Odamlar o'zlarining onlayn "menliklarini" qurishadi va amalga oshiradilar, ular boshqa qurilgan "menliklarning" dinamik tarmog'iga kiritilgan. Shaxsning bunday konstruksiyalari va ijrolari nafaqat kengroq ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy hikoyalar fonida sodir bo'ladi, balki bu "katta hikoyalar" ni murakkab yo'llar bilan qurilgan shaxsiy hikoyalar bilan birlashtiradi (shuningdek, Sadler Citation2021 ga qarang ). Bunda tarjimon va tarjimaning fikri va konstruksiyasi ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari – tarjimonlar ham, tarjimon bo'lmaganlar ham shaxsini aniqlash ishlarida murakkab usullarda qo'llaniladi. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlarda tarjimonlarning namoyishi va tarjimasi "syujet qurilmasi", onlayn shaxsiy identifikatorlarni qurishda diskursiv resurs vazifasini bajaradi - bu figurada mavhum madaniy bahslarni konkretlashtirishga imkon beruvchi syujet qurilmasi.

Ijtimoiy tarmoqlarda identifikatsiya qilishda tarjima va tarjimonlarning ushbu vakillik foydalanishlari yaqinda tadqiqotning markaziga aylandi va hali ko'p ishlarni qilish kerak. Masalan, Kotze va boshqalar. ( Citation2021 ) Goodreads-da tarjima konstruksiyalari bo'yicha asosan hisoblash ishlarini taqdim etadi; Gudreads-dagi identifikatsiya rivoyatlarida bunday konstruksiyalar qanday kiritilganligi haqida batafsilroq sifatli tahlil qilish davom etmoqda (qarang: Van Egdome va Kotze Ba'zi tajriba ishlari uchun Citation2024). Shuningdek, “tarjimon”, “tarjima *jarayon sifatida* ” va “ *matnning* tarjima qilingan holati ” tushunchalaridagi farqlarni yanada chuqurroq ko'rib chiqish zarur (qarang: Freeth ). Iqtibos 2022). Nihoyat, tarjima va tarjimon haqidagi tushunchalarni ochishda an'anaviy ommaviy axborot vositalari va onlayn ijtimoiy media o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni hisobga olgan holda, an'anaviy ommaviy axborot vositalaridagi munozaralarda bahs-munozaralar qurilishi va uning ijtimoiy media bilan o'zaro ta'sirini batafsilroq tahlil qilish zarur. Ushbu yo'nalishdagi keyingi kengaytmalar, shuningdek, ijtimoiy media tadqiqotlari va tarjimashunoslik o'rtasida fanlararo munozaralarni ochish imkoniyatini beradi.

### ADABIYOTLAR

1. Dea Ex Machina (@ZaireKrieger). 2021. “Hoe Salty op...”Twitter, February 23, 2021, 11:36 pm <https://twitter.com/ZaireKrieger/status/1364343287327444998>.
2. Fenwick, Chris (@lexipenia). 2021a. “The Moral Panic...”Twitter, March 12, 2021, 10:21 pm <https://twitter.com/lexipenia/status/1370485049892671488?s=20&t=Ly9C-C8kppD3-Dpm8RYGQg>
3. Hur, Anton (@AntonHur).2021a. “Wondering Whether the...”Twitter, March4, 2021, 11:22 am <https://twitter.com/AntonHur/status/1367420245284024320?s=20&t=Ly9C-C8kppD3-Dpm8RYGQg>.

4. M. F. Saparova. 2024. “O‘zbek tili tezaurusida ot so‘z turkumiga oid so‘zlarning ma’noviy kategoriyalashtirish masalasi”, O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2024, [1/4]
5. Barrios, Nuria. 2021. “The Challenge of Translating Amanda Gorman If You are White.” El País, March 12. <https://english.elpais.com/usa/2021-04-21/the-challenge-of-translating-amanda-gorman-if-you-are-white.html#Echobox=1615544134>.
6. Berger, Miriam. 2021. “White Translator Removed from Amanda Gorman Poem, Amid Controversy in Europe.” The Washington Post, March 11. <https://www.washingtonpost.com/world/2021/03/11/amanda-gorman-white-translator-spain/>.
7. Deul, Janice. 2021. “Opinie: Een witte vertaler voor poëzie van Amanda Gorman: Onbegrijpelijk [Opinion: A White Translator for the Poetry of Amanda Gorman: Incomprehensible].” De Volkskrant, February 25. <https://www.volkskrant.nl/columns-opinie/opinie-een-witte-vertaler-voor-poezie-van-amanda-gorman-onbegrijpelijk>.
8. Kotze, Haidee. 2021a. “Translation is the Canary in the Coalmine: What the Debate about Amanda Gorman’s Translators is Really About.” Medium, March 15. <https://haidee-kotze.medium.com/translation-is-the-canary-in-the-coalmine-c11c75a97660>.
9. McWhorter, John. 2021. “Translating Amanda Gorman.” It Bears Mentioning (blog). March 20. <https://johnmcwhorter.substack.com/p/translating-amanda-gorman?s=r>.
10. Zappavigna, Michele. 2012. Discourse of Twitter and Social Media: How We Use Language to Create Affiliation on the Web. London: Continuum

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA‘LIM-TARBIYA JARAYONIDA O‘QUVCHILAR JAMOASINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

*Turaboyeva Umida Sobirjanovna*

*Chortoq tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli*

*32-maktabning bishlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim-tarbiya jarayonida jamoa rivojlanishining asosiy bosqichlarini amalga oshirishda o'z o'rnini bilan amalga oshirishlari lozim, chunki Dastlab pedagogning kuch-g'ayrati natijasida sinfda o'rnatilgan muayyan talablar; tartib, intizom bilan o'quvchilarning unga katta bo'lmagan qismi sinf rahbarining harakatlarini qo'llab-quvvatlashi bilan izohlanadi.

**Kalit so'zlar:** Pedagog, barkamol, yoshlar, ta'lim-tarbiya, jamoa, faoliyat, mutafakkir, sinf jamoasi, qobiliyat, ko'nikma, malaka, jismoniy tarbiya, sport, o'quv faoliyati.

**Аннотация:** Учителя начальной школы должны играть свою роль в реализации основных этапов формирования коллектива в образовательном процессе, поскольку изначально в классе в результате усилий педагога устанавливаются определенные требования; Порядок, дисциплина объясняется тем, что небольшая часть учащихся поддерживает действия руководителя класса.

**Ключевые слова:** Педагог, компетентный, молодежь, образование, коллектив, деятельность, мыслитель, классный коллектив, способности, умение, квалификация, физическое воспитание, спорт, учебная деятельность.

Bugungi kunda ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchi pedagoglar oldiga qo'yiladigan asosiy masala va muhim bo'lgan javobgarlik o'sib kelayotgan yosh avlodni xar tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash va bu bilan bir qatorda ularga jamoaviy ijtimoiy hayot turmush darajasi va ularning komil shaxs va yetuk ishbilarmon kadr bo'lib shakllanishlari uchun bor kuch g'ayrat va shijoatini ishga solishni talab etadi. Yuqoridagi vazifalarni bajarishda birinchi navbatda biz Bolani kichik maktab yoshidan tarbiyalashni boshlashimiz lozim chunki bola xar tomonlama yetuk bilimli bolishi bilan bir qatorda jamoada ham faoliyatga kirisha olishi kerak.

Odamlarga jamoa bo'lib yashashi zaruriyati qadimgi ibtidoiy jamoa davrida ham zaruriy yashash va faoliyat bilan shug'ulanish jarayonida muhim hisoblangan insonlarning jamoa bo'lib yashahslariga birinchilardan bo'lib Suqrot, Platon, Aristotel, Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan esa Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqalar ilmiy asoslangan fikrlari bilan o'z muloxazalarini keltirishgan. Ayniqsa, buyuk faylasuf olim qomusiy mutafakkir Abu Nasr Forobiyning asarlarida



jamoaga bo‘lib yashashga tabiiy moyillikni inson turmush tarzining ajralmas mazmuni ekanligini kletirilganligini ko‘rishimiz mumkin [1]. Farobiy bu haqida o‘z asarlarida quyidagi fikr-mulohazalarni bayon etgan: « U har bir inson o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi shunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun odamlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo‘lgan, kishilarni bir-biriga etkazib beruvchi va o‘zaro yordamlashuvchi ko‘p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o‘z tabiati bo‘yicha intilgan etuklikka erishishi mumkin. Bunday jamoa a‘zolarining faoliyati bir-butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni etkazib beradi. SHuning uchun inson shaxslari ko‘paydilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi». Farobiy keltirib o‘tgan fikrlaridan shuni anglashimiz mumkinki jamoa odamlar maqsad-manfaatlarining umumiylik negizi, o‘zaro hamkorlik qilish zaruriyati, mehnat va maishiy hayotiy faoliyatlari yo‘nalganligi asosida o‘zaro birgalikda harakat qilishlarini taqozo etishdan vujudga keladi. Bugungi kunda ilk jamoa bolib shakllanishning ongli ko‘rinishlarini biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatlarida ko‘rishimiz mumkin. O‘quvchilar faoliyat turlariga mutanosib tarzda mehnat, ta‘lim-tarbiya, maishiy hayot, badiiy ijod, harbiy, jismoniy tarbiya, sport, oila kabi doiralarda jamoalar vujudga kelish jarayonlarida va samarali amal qilishning amaliy ko‘rinishlarini ko‘rishlari mumkin. Boshlang‘ich sinf rahbarining tarbiyaviy ishlarida o‘quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash-tarbiya nazariyasining yetakchi g‘oyasidir.

Har bir sinf- kichik jamoaning bir ko‘ri ishi bo‘lib, o‘zining faollariga ega bo‘ladi va bu jamoa maqsadlarning birligi va umumiy ishlarni tashkil etish bilan bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin. SHuning uchun har bir o‘qituvchi tarbiyaviy ishni sinfdagi jamoa munosabatlarining rivojlanish darajasi(bosqichi, davri)ni aniq belgilashdan boshlaydi. Sinf rahbari jamoasining o‘z ish uslubi bilan rivojlanishiga tusqinlik qilmasligi uchun vaqti-vaqti bilan jamoaning rivojlanishi darajasini aniqlab turadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta‘lim-tarbiya jarayonida jamoa rivojlanishining uch darajasini o‘z o‘rni bilan amalga oshirishlari lozim. Dastlab pedagogning kuch-g‘ayrati natijasida sinfdagi o‘rnatilgan muayyan talablar; tartib, intizom bilan o‘quvchilarning unga katta bo‘lmagan qismi sinf rahbarining harakatlarini qo‘llab-quvvatlashi bilan izohlanadi. Past darajadan yuqori darajagacha boradigan yo‘l uzoq bo‘lib, muayyan qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan kechadi. Ayni paytda jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar juda qiziqarlidir.


Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo‘g‘in - bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o‘quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o‘qish faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, sinflar jamoalari negizida maktab

jamoasi shakllanish bosqichlarini birin ketin amalga oshiriladi. Yuqoridagi jamoaning o‘ziga xos belgilaridan kelib chiqib, shunday xulosa chiqarish mumkin.

**O‘quvchilar jamoasi** – bu ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko‘zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, umumiy saylab qo‘yilgan organiga ega bo‘lgan, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a‘zolarining huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo‘lgan o‘quvchilar guruhidir.

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadigan uzoq muddatli murakkab jarayon bo‘lib u sekin asta va bosqichma bosqich amalga oshiriladi. Jamoaning vujudga kelish uchun to‘rt bosqich zarur. 1-rasm.

Jamoaning shakllanish bosqichlarida dastlab o‘qituvchi butun guruhga talab qo‘yadi hamda mazkur jarayonda jamoa faollarining shakllanishiga alohida e‘tibor qaratadi.



Jamoaning yuqorida qayd etilgan bosqichlari va sosiy ko‘rinishlariga boshang‘ich sinf o‘qituvchilari amal qilishlari va jamoasani shakllantirish orqali ta‘lim tarbiya jarayonlarini amalga oshirishga alohida e‘tibor berishlari lozim. Chunki, jamoaning rivojlanishi – jamoa hayotining qonunidir.

Xo‘sh, bolalar jamoasining olg‘a harakat qilib borishiga nima yordam beradi? Uning rivojlanishiga nima imkon beradi?

Bunday kuch istiqboldir. Hayot shuni ko‘rsatadiki, kishining kelajakka umid va ishonch bilan intilishi, hayotiy istiqbolini yurtimizning taqdiri bilan bog‘lab, mustaqil diyorumizning bugungi jamiyat sharoitida ma‘naviy va ma‘rifiy qiyofasini yaratishda hissa qo‘shgan kishi va jamoa tobora shakllanib, rivojlanib boradi.

Xulosa o’rnida shuni malum qilamizki bu intilish va hayotiy istiqbolda kishining ma’naviy va madaniy extiyojlarining jami, uning rivojlanganlik darajasi, butun ma’naviy qiyofasi aks etadi. Istiqbolning eng muhim pedagogik xususiyatlaridan biri shuki, degan edi A.S.Makarenko: “ U oldinga qo‘yilgan maqsad sifatida, bolani istagan natijaga erishish imkoniyati bilan qiziqтира olish, unda kelajakni barpo etishda qatnashish istagini uyg‘otish. Quvnoq kayfiyat va olg‘a intiluvchanlikni vujudga keltirishdir ”. Bu fikrlari bilan A.S.Makarenko pedagogik nuqtai nazardan istiqbol deganda, shaxsning bolalar guruhini, umuman jamoani rivojlantirishning ichki extiyojlariga javob beruvchi, uning a’zolarini rivojlanish darajasiga, ularning yosh va individual xususiyatlariga hamda jamiyatimiz vazifalariga mos keladigan vazifalar, maqsadlar, ishlari tushuniladi.

#### **Foydalanilgan adabiytlar:**

1. O‘. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev “Pedagogika” T., “Talqin” 2008 y
2. A. To‘xtaboev, A. Eraliev “Tashkiliy xatti-xarakterlar” Andijon., “Xayot” 2001 y
3. R. Mavlonova “Pedagogika” T., “O‘qituvchi” 2004 y
4. *Общая педагогика/Под. ред. V. A. Slastenina. V.2ch. – M.: VLADOS, 2003*
5. Karimov, J. J. O. G. L., & Kamalova, A. (2024). Yoshlar o‘rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi. *Science and Education*, 5(2), 513-519.
6. Jo‘Rakabirova, M. X. Q., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta’lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati. *Science and Education*, 5(3), 490-494.
7. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.
8. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). USING CASE STADE TECHNOLOGY IN LEGAL EDUCATION FOR TEENAGERS. *Экономика и социум*, (8), 42-45.

**TA'LIM MUASSASALARIDA MATEMATIKA FANLARINI ZAMONAVIY  
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN  
FOYDALANIB O'QITISHDA UCHRAYOTGAN MUAMMOLAR  
VA ULARNING YECHIMLARI HAQIDA**

**Tojiyev Ilhom Ibraimovich**

*Navoiy innovatsiyalar universiteti, fizika-matematika fanlari nomzodi,  
[adamjon-2015@umail.uz](mailto:adamjon-2015@umail.uz), 97-323-19-07;*

**Jumaqulova Zilola Shuhrat qizi**

*Navoiy innovatsiyalar universiteti, o'qituvchi;*

**Isomova Sabohat Islom qizi**

*Navoiy davlat pedagogika instituti, magistrant*

**Annotatsiya.** Ushbu ishda Matematika fanini o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashda duch kelinayotgan dolzarb muammolar va ularning yechimlari haqida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar.** Raqamli transformatsiya, ta'lim mazmunining sifati, o'quvchilarning motivatsiyasi, o'qitishning innovatsion usullari, foydalanish imkoniyati va infratuzilma.

**Аннотация.** В данной работе высказаны мнения об актуальных проблемах и их решениях в применении современных информационно-коммуникационных технологий в преподавании математики.

**Ключевые слова.** Цифровая трансформация, качество образовательного контента, мотивация учащихся, инновационные методы обучения, доступность и инфраструктура.

**Annotation.** This paper expresses opinions about current problems and their solutions in the use of modern information and communication technologies in the teaching of mathematics.

**Keywords.** Digital transformation, quality of educational content, motivation of students, innovative teaching methods, accessibility and infrastructure.

## **KIRISH**

Turli soha mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, matematika fanini yaxshi o'zlashtirgan o'quvchining analitik va mantiqiy fikrlash qobiliyati yuqori bo'ladi. Buni nafaqat misol va muammolarni hal qilishda, balki hayotdagi turli vaziyatlarda ham tez qaror qabul qilishda, muhokama qilishda va muzokaralar olib borishda, ishlarni bosqichma-bosqich bajarishda qobiliyatlarini ko'rishimiz mumkin.

Matematika fanini o‘qitishda yangi texnik vositalari, jumladan, kompyuter va boshqa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan va joriy etilayotgan hozirgi davrda, fanlararo integratsiyani ta’minlash maqsadida informatika fanining yutuqlaridan foydalanish shu davrning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Ta’lim muassasalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ining joriy etilishi o‘quv jarayonini optimallashtirishga keng yo‘l ochadi. So‘ngi yillarda matematika fanini o‘qitishda zamonaviy AKTdan foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI**

Bir qancha olimlar zamonaviy AKTdan foydalangan holda matematikani o‘qitish sohasidagi muammolar va yechimlar ustida faol ishlar olib borishganlar. Bulardan, Seymour Papert ta’limdagi “konstruktivizm” tushunchasining asoschilaridan biri, matematika va mantiqni o‘rgatishda qo‘llaniladigan Logo dasturlash tilini ham yaratuvchisidir. Salmon Xon Xon Akademiyasining (Khan Academy) asoschisi, u bepul onlayn foydalanish mumkin bo‘lgan keng matematika mazmunini o‘z ichiga olgan ta’lim platformasini ishlab chiqdi. Jon Xetti ta’lim bo‘yicha tadqiqotchi, u o‘qitishning turli usullari, jumladan, AKTdan foydalanish samaradorligini o‘rganadi va ularning ta’lim natijalariga ta’sirini baholaydi. Richard Culatta AQSh Ta’lim Texnologiyalari Ofisining sobiq direktori, u AKTni ta’limga, jumladan, matematika ta’limiga integratsiyalash uchun strategiya va resurslarni ishlab chiqish ustida ishlagan.

O‘zbekistonning matematika sohasidagi bir qancha olimlari ham matematikani o‘qitishda AKTdan foydalanishga doir muhim ishlar olib borgan. Jumladan, o‘zbek matematik olimi A.Alimov, Toshkent davlat universitetida (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti) matematika fanlarini o‘qitishda AKTni qo‘llab o‘qitish bo‘yicha ishlarga rahbarlik qilgan. U o‘quv dasturlarini va resurslarni AKT bilan integratsiya qilish, onlayn ta’lim platformalarini yaratish va onlayn ma’ruzalarni tayyorlash kabi masalalarda ishlarni olib borgan. R.Aminov, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida matematika fanlarini o‘qitishda AKTni qo‘llash sohasida ishlar olib borgan. U onlayn darslar tayyorlash, interaktiv darsliklar yaratish va matematika o‘quv dasturlarini onlayn platformalarda taqdim etish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirgan. Sh.Turdiboyev, matematika fanlarini o‘qitishda AKTni qo‘llash va onlayn ta’lim vositalarini rivojlantirishga oid ko‘plab ishlar olib borgan. U interaktiv darsliklar, matematik o‘quv dasturlari va onlayn platformalar tayyorlash, shuningdek, matematika fanini o‘qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanishning ko‘rsatmalarini tuzishga ham e’tibor qaratgan.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Matematika fanlarini ta’lim muassasalarida zamonaviy AKT yordamida o‘qitishning bir qancha afzalliklari mavjud bo‘lib, bular:

**Ta’limning raqamli transformatsiyasi:** jamiyatning turli sohalarida, jumladan, ta’limda ham raqamli transformatsiyaga duch kelinmoqda. Shundan kelib chiqib, o’quvchilarning samarali bilim olishini ta’minlash uchun ta’lim muassasalarining yangi AKTga moslashishi muhim ahamiyatga ega;

**Ta’lim olish imkoniyatini oshirish:** AKTdan foydalanish, ayniqsa, chekka yoki borish qiyin bo’lgan hududlarda bo’lganlar uchun ta’lim olish imkoniyatini oshirishi mumkin. Onlayn kurslar, vebinarlar va interfaol o’quv platformalari o’rganishni yanada moslashuvchan va qulay qiladi;

**Ta’lim sifatini oshirish:** zamonaviy AKT matematikani o’rganish sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin bo’lgan keng ko’lamli vositalar va resurslarni taqdim etadi. Bu interfaol ilovalar, vizualizatsiya, onlayn ma’ruzalar va o’quv jarayonini o’quvchilar uchun yanada qiziqarli va tushunarli qiladigan boshqa ko’plab vositalarni o’z ichiga oladi;

**Kelajakdagi ish uchun tayyorgarlik:** bugungi dunyoda AKT ko’plab professional sohalarda tobora muhim rol o’ynaydi. O’quv jarayonida AKTdan foydalanish o’quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida zarur bo’ladigan ko’nikmalarni, masalan, kompyuter dasturlari bilan ishlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va shu kabilarni shakllantirishga yordam beradi;

**O’qitishning innovatsion usullari:** zamonaviy AKTdan foydalanish o’qitishning innovatsion usullarini qo’llash imkonini beradi, masalan, o’yinlar, interfaol vaziyatlar, hamkorlikdagi loyihalar va boshqalar orqali o’rganish, bu esa o’quv materialini yanada samarali o’zlashtirishga xizmat qiladi;

Umuman olganda, matematika fanini o’qitishda zamonaviy AKTdan foydalanish nafaqat zamon talablariga javob beradi, balki ta’lim sifatini oshirish, o’quvchilarni zamonaviy dunyo chaqiriqlariga mos qilib tayyorlashning asosiy elementi hisoblanadi.

Afsuski, Matematika fanini o’qitishda zamonaviy AKTdan foydalanishda bir qator muammolarga duch kelinmoqda, bular quyidagilardan iborat:

**1. Foydalanish imkoniyati va infratuzilma:** barcha ta’lim muassasalari kompyuterlar, internet tarmog’iga ulanishlari, interfaol doskalar va boshqalar kabi zarur AKT va jihozlardan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Bu esa o’z navbatida sifatli ta’lim muhitini tashkil qilish va o’qitishda texnologiyalardan foydalanish imkoniyatining cheklanishi;

**2. O’qituvchilarning ta’lim va malakasini oshirish:** ba’zi o’qituvchilar tegishli tayyorgarlik va yetarli darajada bilimi yo’qligi sababli yangi texnologiyalarni o’zlashtirish va ularni o’quv jarayonlariga kiritishda qiyinchiliklarga duch kelinishi;

**3. Ta’lim mazmunining sifati:** texnologiya mavjudligi har doim ham sifatli ta’lim mazmunining mavjudligini kafolatlamaydi. Dasturiy ta’minot, ilovalar va onlayn resurslar ma’lum bir kurs yoki sinf darajasining ta’lim maqsadlari va talablariga yetarlicha moslashtirilmagan bo’lishi;

**4. O‘quvchilarning motivatsiyasi:** AKTdan foydalanish, ayniqsa texnologiya to‘g‘ri ishlatilmasa yoki yetarlicha qiziqarli tarzda ishlatilmasa, o‘quvchilar motivatsiyasi bilan bog‘liq muammolarga olib kelishi mumkin. Ba‘zi o‘quvchilarning ijtimoiy tarmoqlar yoki o‘yinlarga kirish orqali o‘qishdan chalg‘ishlari;

**5. Texnik muammolar:** uskunadagi nosozliklar, dasturiy ta‘minotdagi muammolar yoki internetga ulanish bilan bog‘liq muammolar o‘quv jarayonini to‘xtatib qo‘yishi hamda o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun qo‘shimcha qiyinchiliklarning kelib chiqishi;

**6. Ma‘lumotlar xavfsizligi va maxfiyligi:** zamonaviy AKTdan foydalanish, ayniqsa, onlayn platformalar bilan ishlashda va o‘quvchilarning shaxsiy ma‘lumotlarini saqlashda ma‘lumotlar xavfsizligi va maxfiyligi bilan bog‘liq xavflarning oshishi;

**7. Interaktiv ta‘lim uchun cheklangan imkoniyatlar:** matematikaning ba‘zi sohalarini zamonaviy AKT orqali o‘rganish qiyin bo‘lishi mumkin, ayniqsa individual e‘tibor va qo‘llab-quvvatlash zarur bo‘lsa. Bu interfaol o‘rganish va muammolarni guruh shaklida hal qilish imkoniyatlarining cheklanishi.

Ushbu muammolarni hal qilish zamonaviy AKTdan foydalanish imkoniyatini yaratish, o‘qituvchilarni tayyorlash va qo‘llab-quvvatlash, sifatli ta‘lim mazmunini ishlab chiqish, o‘quvchilar motivatsiyasini rag‘batlantirish, texnologik infratuzilmaning ishonchliligi va xavfsizligini ta‘minlashni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida sanab o‘tilgan muammolarning har birini batafsil yechish bo‘yicha xulosa va takliflarimizni keltirib o‘tamiz:

### **1. Foydalanish imkoniyati va infratuzilma:**

- ta‘lim muassasalarining texnik infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun moliyaviy yordam ko‘rsatish;
- ta‘lim muassasalari uchun kompyuterlar, interfaol doskalar va boshqa zarur jihozlarni xarid qilish uchun maxsus grant yoki subsidiya dasturlarini tashkil etish;
- AKTdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan ta‘lim muassasalarini aniqlash maqsadida so‘rov va tahlil o‘tkazish.

### **2. O‘qituvchilarning ta‘lim va malakasini oshirish:**

- Matematika fanini o‘qitishda zamonaviy AKTdan foydalanish bo‘yicha o‘qituvchilar uchun maxsus kurslar va treninglar o‘tkazish;
- o‘qituvchilarning mustaqil ta‘lim olishlari uchun onlayn resurslar va platformalarni yaratish;
- tajribali o‘qituvchilar hamkasblariga yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishda yordam berishi mumkin bo‘lgan murabbiylik tizimini joriy etish.

### **3. Ta‘lim mazmunining sifati:**

- zamonaviy AKTdan samarali foydalanadigan maxsus o‘quv dasturlari va materiallarini ishlab chiqish va moslashtirish;
- mavjud onlayn manbalar va ilovalarni ko‘rib chiqish va baholashni o‘tkazish, ularning eng yuqori sifatlisini va matematikani o‘qitish uchun mosligini aniqlash;
- ochiq ta‘lim resurslari (OTR) shaklida ta‘lim mazmunini yaratish va tarqatishni rag‘batlantirish.

#### **4. O‘quvchilarning motivatsiyasi:**

- o‘yinlar, onlayn viktorinalar, virtual laboratoriyalar va boshqalar kabi interfaol va qiziqarli o‘qitish usullaridan foydalanish;
- ta‘lim texnologiyalarini hayotiy misollar va matematikani qo‘llash bilan integratsiyalash;
- AKTdan foydalanishga bo‘lgan imtiyoz va ehtiyojlarni aniqlash maqsadida talabalar o‘rtasida tadqiqot va so‘rovlar o‘tkazish.

#### **5. Texnik muammolar:**

- uskunalar va dasturiy ta‘minot bilan bog‘liq muammolarni tez hal etishga yordam beradigan ta‘lim muassasalari va o‘qituvchilarning texnik yordamini tashkil qilish;
- texnik nosozliklarni oldini olish uchun uskunaga muntazam texnik xizmat ko‘rsatish va dasturiy ta‘minotni tashkil etish.

#### **6. Ma‘lumotlar xavfsizligi va maxfiyligi:**

- AKTdan foydalanishda ma‘lumotlarni himoya qilish va shaxsiy daxlsizlik qonunchiligiga muvofiqligini ta‘minlash;
- axborot xavfsizligi siyosatini amalga oshirish, o‘qituvchilar va talabalarni kiberxavfsizlik asoslari bo‘yicha o‘qitish.

#### **7. Interaktiv ta‘lim uchun cheklangan imkoniyatlar:**

- guruh topshiriqlari va loyihalarini o‘tkazish imkoniyati bilan onlayn platformalardan foydalanish;
- videokonferensaloqa texnologiyalaridan foydalangan holda virtual master-klass va seminarlar tashkil etish.

Ushbu muammolarni hal qilishda yondashuv har tomonlama bo‘lishi, texnik va pedagogik jihatlarni, shuningdek, muayyan ta‘lim muassasasi va uning o‘quvchilarining ehtiyojlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bo‘lishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Seymour Papert. *The Children’s Machine: Rethinking School in the Age of the Computer*, 1992, [ISBN 0-465-01063-6](#).
2. Пейперт С. *Переворот в сознании: Дети, компьютеры и плодотворные идеи*. Москва, Педагогика, 1989.



3. Hattie, J. A. Identifying the salient facets of a model of student learning: A synthesis of metaanalyses. *International Journal of Educational Research*, 11, 1987, pp 187–212.
4. Hattie, J. A. What works: A model of the teaching-learning interaction. Paper presented at the Annual Conference of the Australian Teacher Education Association, Fremantle. 1993b, July.
5. Richard Culatta. [Digital for Good: Raising Kids to Thrive in an Online World](#). Harvard Business Review Press, July 2021.
6. Culatta, Richard, and Katrina Stevens. [“There’s an App for That. Well, Maybe”](#). Medium. August 21, 2015.
7. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. // Monografiya.-T. – Fan va texnologiyalar, 2016-y, 76-bet.
8. Tojiyev I.I., Egamberdiyev Sh.K. Use of science integration in teaching mathematics. // *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. ISAE-2020, ISSN : 2581-4230. 2020/6/13. Page No. 352-356.
9. Тожиев И.И., Карабекян С.Х., Баракаев А.М. [Определение объёма жидкости в цилиндрической ёмкости с использованием интеграции дисциплин](#). // Вестник науки и образования. 18-2 (96). ООО «Олимп». 2020. Стр. 47-51.
10. Tojiyev I.I., Isomova S.I., Jumaqulova Z.Sh. Matematika fanini o‘qitishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda uchrayotgan muammolar. // Navoiy innovatsiyalar universiteti. “Oliy ta‘limda raqamli texnologiyalar va innovatsiya: fan, ta‘lim, tarbiya” mavzusidagi xalqaro miqyosdagi ilmiy-texnik anjuman. Navoiy, 2024 yil 18 aprel. 208-211 betlar.

## МЕСТО В.Г. БЕЛИНСКОГО В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ НАСЛЕДИИ

*Мухлиса Турсунова Ширинбой кизи*

*Преподаватель Узбекского государственного  
университета мировых языков*

### АННОТАЦИЯ

Статья посвящена место педагогического наследия в творчестве Виссариона Григорьевича Белинского и его роль в воспитании гармонично- развитого молодого поколения. В. Белинский считал, что воспитание человека – это великое дело. В нем решается дальнейшая судьба человека. Он призывал воспитывать в детях безграничную любовь к родной стране, отвращение ко всем формам угнетения человека человеком.

**Ключевые слова:** педагогика, ребенок, русский народ, нравственное воспитание, развитие, младший возраст.

### PLACE V.G. BELINSKY IN THE PEDAGOGICAL HERITAGE

**Mukhlisa Tursunova Shirinboyevna**

Teacher of UzSWLU

### Annotation

The article is devoted to the place of pedagogical heritage in the work of Vissarion Grigorievich Belinsky and its role in the education of a harmoniously developed young generation. V. Belinsky believed that educating a person is a great thing. It decides the future fate of a person. He called for instilling in children boundless love for their native country and aversion to all forms of oppression of man by man.

**Key words:** pedagogy, child, Russian people, moral education, development, younger age.

В первых педагогических статьях В.Г. Белинский развивал важнейшую идею о народности воспитания. Он верил, что русский народ, томившийся под ярмом крепостнического и самодержавно- полицейского гнёта, найдет в себе силы изменить к лучшему свою жизнь. Его вера в творческие силы народа была неистоимой, носила характер твердого убеждения, основанного не только на представлении о неизменном прогрессе общественного развития, но и на собственном знании народной жизни, близости к народу и горячей сыновней любви к нему. «Народность - обыкновенно выпускается у нас из плана воспитания». В.Г. Белинский считал, что настоящий человек не может быть равнодушным к судьбе своей родной страны, ибо «кто не принадлежит своему

отечеству, тот не принадлежит и человечеству». Рекомендую детям чтение В. Скота, Ф. Купера, В. Гёте и В. Шекспира, он настаивал на изучении прежде всего гениальных творений русских писателей. «Естественная кровь - еще недалеко не составляет того, чем должна быть человеческая любовь» - пишет Белинский. Он признаёт, что родители чаще всего любят своих детей растительной, инстинктивной любовью. Любовь человека должна быть просветлена разумом, способствовать формированию в детях высоких идеалов, нравственных качеств. Он разъяснил родителям, в чём состоят различия между естественной, кровной любовью и разумной любовью к детям, которым предстоит проявить себя по-настоящему в будущем. Ребенок должен любить и уважать своих родителей, он обязан подчиняться их общечеловеческим требованиям, но нельзя «ограничить поприще его жизни только успокоением нежных родителей». Обязанности человека по отношению к обществу также священны, как и отношение к родителям.

По мнению В. Белинского, основной вопрос воспитания заключается в том, должно ли детей воспитывать так, чтобы они могли уживаться с обществом, или должно желать, чтобы общество сделалось способным уживаться с людьми благовоспитанными. Нравственное воспитание В.Г. Белинский считает важнейшей стороной формирования человека. «Есть много родов образования и развития и каждое из них важно само по себе, но всех их выше должно стоять образование нравственное» - говорит Белинский. Основное требование к нравственному воспитанию в младшем возрасте состоит в том, чтобы оградить детей от всего дурного, поставить перед их глазами положительные примеры. В.Г. Белинский не отрывал нравственное совершенствование человека от его умственного развития. После 7 лет должно «начаться систематическое образование дитяти, которое не может быть частным, специальным или исключительным». Оно должно создавать условия для развития всех духовных сил будущего человека способствовать развитию логического мышления. Истинная нравственность имеет своей основой хорошие задатки, свойственные каждому человеку. Чтобы она развивалась, надо предоставить детям разумную свободу и самостоятельность. Безнравственна такая обстановка, в которой в детях задавлены, приглушены все естественные склонности и задатки. Пусть дети тянутся к совершению доброго и хорошего не ради будущей награды. Высшей наградой для них должна быть радость от сознания справедливости и правоты поступков. Он называет юношеский энтузиазм, стремление к героике и романтике «необходимым моментом нравственного развития», способствующий внутреннему очищению от корыстных и эгоистических побуждений. Говоря о том, какой должна быть дружба с товарищами, он считает, только та дружба

нравственна, которая построена на истинной симпатии и развивается «через стремление к общему... через любовь к истине».

В. Г. Белинский резко выступал против широко распространенных в его время утверждений, что природа человека предопределяет возможности его воспитания. Он считал, что природа щедро одаряет людей способностями и дарованиями, а бездарные и тупые люди — такое же редкое исключение, как физические уроды. Сословная принадлежность человека также не должна ограничивать его право на воспитание и образование. Признав вслед за, что «человек есть существо общественное», Белинский говорил: «Создает человека природа, но развивает и образует его общество». Общество должно обеспечить всем людям равное воспитание, развить их духовные силы и индивидуальные способности.

В. Г. Белинский высказывал прогрессивные педагогические взгляды на развитие ребенка и сущность воспитания. Он выступил против механистического представления о воспитании как о процессе, в ходе которого взрослые наполняют ребенка, как пустой сосуд, тем или иным содержанием. Указывая, что ребенок не вещь, не игрушка в руках воспитателя, Белинский подчеркивал, что демократическая педагогика с доверием относится к детям, что в каждом ребенке есть хорошие стороны. Искусство воспитания в том и состоит, чтобы их выявить, развить, сформировать. Педагоги должны заниматься не подавлением у детей выдуманных пороков, а устранением причин, вызывающих детские проступки. Борьбу с отрицательным поведением детей необходимо сочетать с развитием их положительных свойств и качеств. В.Г. Белинский указывает на опасность формализма в моральном воспитании. Построенная на голых сентенциях (нравоучительных) и резонерских (назидательных) поучениях, оно в лучшем случае приучит детей механически следовать моральным требованиям, они о станут равнодушными и добру, и злу. У детей следует вызвать горячее, сильное чувство любви к доброму и хорошему. Надо помогать детям с самых ранних лет в меру их развития через жизненные примеры и художественные образы литературы осознать моральные требования. В старшем возрасте должно обратить серьёзное внимание на развитие в молодых людях сознательности, стойкости, закаленности. Мечтательно-романтическое, сентиментальное воспитание не создает обществу полезных граждан. Главным в поведении человека является неустанная борьба с общественным злом, с отжившими косными общественными порядками, а не сочувствие ближнему или углубление в свой внутренний мир. В.Г. Белинский стоит за всестороннее участие воспитанников в общественной деятельности. Именно это участие есть основной путь нравственного воспитания человека. Развивая своё учение о нравственном воспитании, В.Г. Белинский шёл от романтизма к реализму, от

проповеди созерцательного альтруизма к возглашению чувства любви основным средством нравственного воспитания.

**Список использованной литературы:**

1. Белинский В.Г. Избранные педагогические сочинения. – М.: Педагогика, 1982. – 288 с.
2. Белинский В.Г. Собрание сочинений. - М., 1981. Т. VII.
3. Каптерев П.Ф. История русской педагогики. – СПб: Алетейя, – 2004. – 560 с.
4. Медынский Е.Н. Педагогические идеи В.Г. Белинского. – М., 1948 – 20 с.
5. Познанский Н. Ф. В.Г. Белинский о воспитании. – М., 1949. – 128 с.
6. Смирнов В. З. Крупнейший русский педагог первой половины XIX в.: К 150 -летию со дня рождения В.Г. Белинского // Советская педагогика. – 1961. – № 6. –С. 32–43.
7. Шабаева М.Ф. Педагогические идеи В.Г. Белинского // Избранные педагогические сочинения. – М.: Педагогика, 1982. – С. 6–16.

## INTERAKTIV VEB ILOVA ISHLAB CHIQUISH TEXNOLOGIYASI

**Davronbek Qodirov Rajabboy o‘g‘li**  
TATU Nukus filiali assistent o‘qituvchisi,  
**To‘liboyeva Umida Gulmirza qizi**  
TATU Nukus filiali assistent o‘qituvchisi,  
**Tohirjonova Shahzoda Oybekjon qizi,**  
TATU Nukus filiali talabasi  
**Tursunboyeva Mahbuba O‘razboy qizi,**  
TATU Nukus filiali talabasi

**Abstract:** In this article, practical work on the sequence of creating an interactive web application that teaches web programming using the Django framework of the Python programming language has been developed.


**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Python dasturlash tilining Django frameworkdan foydalangan holda veb dasturlashni o‘rgatuvchi interaktiv veb ilova yaratish ketma-ketligi bo‘yicha amaliy ishlar ishlab chiqilgan.

**Key words:** python, django, test, user, creatsuperuser, pip, template, html,css,js, bootstrap, ORM, view, app, install, password, reset password, change password, update, create, delete, localhost, admin panel, database, postgresql

**Kalit so‘zlar.** python, django, test, user, creatsuperuser, pip, template, html,css,js, bootstrap, ORM, view, app, install, password, reset password, change password, update, create, delete, localhost, admin panel, database, postgresql

Veb-ilova: nima, nimadan iborat turlari. Texnologiya to‘plami haqida gapirishdan oldin, veb-ilovaning nima ekanligini va u nimadan iborat. Veb-ilova interaktiv elementlarga ega sayt. Ular foydalanuvchilar o‘zaro muloqot qilish imkonini beradi: tugmachalarni bosib, ni to‘ldiring shakllar, narxlarni so‘rash, xaridlarni amalga oshirish. Pochta mijozlari, ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari, onlayn-do‘konlar, loyihalarni boshqarish dasturlari — bu kabi ilovalarning barcha misollari.

Endi veb saytimiz uchun internet bepul shablonlarni qidirib, quyidagi shablonni yuklab olamiz.



1-rasm. <https://themewagon.com/> saytidagi pluto shablони

Veb dasturlashni o‘rgatuvchi interaktiv veb ilova yaratish uchun biz backend dasturlaridan birini tanlab shu orqali yaratishimiz mumkin.


Backend – interfeysni ma’lumotlar bazasi bilan bog‘laydigan va serverdan javoblarni qabul qilish imkonini beruvchi xizmatning dasturiy va apparat qismi. Ushbu to‘plamda biz backend uchun tillar va ularda nima qilish mumkinligi haqida gaplashamiz.

- JavaScript
- Java
- Python
- PHP
- C#

Biz python dasturlash tilidan foydalanib veb ilovamizni dinamik ravishda ishlab chiqamiz.

**Python** dasturlash tili o‘zgaruvchan til hisoblanadi. Oxirgi versiyasi Python 3.12.2 chiqdi (2023-10-02). Boshda sizga aynan qanday versiyasi kerakligini anglab oling. har bir versiya uchun o‘zgarishlar mavjud siz python 2.7 tuzgan kodingizni ayrim joylari yoki foydalangan kutubxonalarini yangi o‘rnatgan versiyangiz uchun boshqa tusda yoki bo‘lmasam u kutubxona o‘rniga aynan yangi texnologiya sifatida boshqa bir kutubxonadan foydalangan bo‘lishi mumkin.

Yuklab olish uchun havola: <https://www.python.org/downloads/>



**2-rasm.** Python rasmiy sahifasidan python dasturini yuklab olamiz

Endi bizda mavjud bo‘lgan shablonni backendlaymiz. Buning uchun bizga python dasturlash tilini Django Frameworkini qo‘llaymiz.

Django bepul va ochiq manbali, Python-ga asoslangan veb-ilovani ishlab chiqishni tezlashtirishi mumkin bo‘lgan bepul, ochiq manbali freymvork. U AQSHda 501(c)(3) notijorat tashkilot sifatida tashkil etilgan mustaqil tashkilot Django Software Foundation (DSF) tomonidan yuritiladi.

Djangoning asosiy maqsadi murakkab, ma'lumotlar bazasiga asoslangan veb-saytlarni yaratishni osonlashtirishdir. Freymvork komponentlarning qayta ishlatilishi va "ulanish imkoniyati", kamroq kod, past ulanish, tez rivojlanish va o'zingizni takrorlamang tamoyiliga urg'u beradi. Python hatto sozlamalar, fayllar va ma'lumotlar modellari uchun ham qo'llaniladi. Django shuningdek, introspeksiya orqali dinamik ravishda yaratilgan va administrator modellari orqali sozlanadigan ixtiyoriy ma'muriy yaratish, o'qish, yangilash va o'chirish interfeysini taqdim etadi.

Masshtablik va qayta foydalanish imkoniyati: Django kodni qayta ishlatish va modullikni targ'ib qiladi, bu esa dasturchilarga ularni qayta foydalanish mumkin bo'lgan modullar yoki ilovalarga bo'lish orqali kengaytiriladigan ilovalarni yaratishga imkon beradi.

ORM va ma'lumotlar bazasini abstraktsiya qilish: Django'ning Ob'ekt bilan bog'liq xaritalash (ORM) qatlami ma'lumotlar bazasini boshqarishning murakkabliklarini mavhumlashtiradi, bu esa dasturchilarga Python ob'ektlari va so'rovlari yordamida ma'lumotlar bazalari bilan ishlash imkonini beradi.

URL yo'naltirish: Django moslashuvchan URL marshrutlash tizimini taqdim etadi, bu esa ishlab chiquvchilarga ilovaning turli qismlari uchun toza va foydalanuvchilar uchun qulay URL manzillarini aniqlash imkonini beradi.

Template Engine: Django shablon mexanizmi HTML shablonlarini loyihalash va renderlash jarayonini soddalashtiradi, bu esa dinamik veb-sahifalarni yaratishni osonlashtiradi.

Autentifikatsiya va avtorizatsiya: Django foydalanuvchi autentifikatsiyasi va avtorizatsiyasi uchun mustahkam o'rnatilgan vositalarni taklif etadi, bu esa ilovaning turli qismlariga xavfsiz kirishni nazorat qilishni ta'minlaydi.

Administrator interfeysi: Django ishlab chiquvchilarga qo'shimcha kod yozmasdan ilova ma'lumotlarini boshqarish imkonini beruvchi intuitiv boshqaruv interfeysini taqdim etadi.

Django loyahasini ishga tushirish SQL-dan foydalanmasdan Python-da ilovangizning butun ma'lumotlar modelini yaratishga imkon beradi. Ob'ektga aloqador xaritalash vositasidan (ORM) foydalanib, Django to'liq Python muhitida ishlashni osonlashtirish uchun an'anaviy ma'lumotlar bazasi strukturasi Python sinflariga aylantiradi. Django-MySQL JSON ma'lumotlar turini va tegishli funktsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Django'da ma'lumotlar bazasi jadvallari Python sinflariga aylanadi. Veb-ilovalar Django modellari orqali ma'lumotlarga kirish va boshqarish. Ma'lumotlar bazasi maydonlari oddiygina sinf atributlariga aylantiriladi. Agar siz Python-da sinf atributlari ta'rifi bilan tanish bo'lsangiz, Django ma'lumotlar bazasini osongina loyihalashingiz va boshqarishingiz mumkin.

Django Web Framework ilovangiz ma'lumotlar bazasi bilan to'liq integratsiya qilish uchun yorliqni taklif qiladi. U CRUD (yaratish, o'qish, yangilash, o'chirish) funktsiyalarini, HttpResponse va saytlararo skriptlarni taqdim etadi, foydalanuvchilarni boshqarish imkoniyatlarini ta'minlaydi, dasturiy ta'minotni boshqarish funktsiyalarini taklif qiladi va boshqalar. Siz paketlarni import qilasiz, ma'lumotlar bazasiga ulanasiz



va soʻngra mahsulotingizni noyob qiladigan ilovangiz qismlarini ishlab chiqishga qaytasiz.

Endi sqLite bazaga maʼlumotlarni admin panel orqali qoʻshamiz. Django Afzal tarafi admin panel tayyor holatda keladi.

Lohiyamizni barcha joylarini kiritib testlab boʻlganimizdan keyin, loyihani ishga tushiramiz. Undan oldin, har bir faylni koʻzdan tekshirib chiqishimiz kerak boʻladi.



3-rasm. Veb ilovani dastlabki koʻrinishi

Bu veb ilovani davom qildirib, turli xil maʼlumotlar bilan, API lar bilan ishlab yanada takomillashtirishingiz mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Madaminov U.A., Bayramova Sh.D. Zamonaviy web texnologiyalar yordamida multimediali web ilova ishlab chiqish. Innovations in technology and science education. Vol. 2, Issue 9. 05/2023, 17-24.
2. Madaminov U.A., Karimova M.S. Oliy taʼlim tashkilotlarida web dasturlashni oʻrgatuvchi amaliy loyiha ishlab chiqish. Innovations in technology and science education. Vol. 2, Issue 9. 05/2023, 25-30.
3. Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Bektemirova Risolat Shukurla qizi. Python dasturlash tili. Innovations in technology and science education. Vol. 2, Issue
4. U.A.Madaminov. Methods of teaching and improving web programming in higher education organizations. International Conference on Information Science and Communications Technologies. DOI: 10.1109/ICISCT55600.2022.10146962.
5. U. Madaminov, Qodirov D. Creating an application for training science. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. 2023/5/17, 295-300p.
6. Madaminov U., Qodirov D, Razzoqova Z. Oliy taʼlim tashkilotlarida mutaxassislik fanlarni oʻqituvchi mobil ilovalarni ishlab chiqish. Innovations in Technology and Science Education. 2023/6/3, 813-816p.
7. Madaminov U., Qodirov D., Avezov M. Use of visit karakalpakstan mobile app in the development of tourism in the republic of karakalpakstan. International journal on human computing studies.
8. U.A. Madaminov, D.R. Kodirov, E.D. Jolimbetova, Vizual dasturlash yordamida amaliy masalalarni yechish. Taʼlim fidoyilari. 2022/6, 77-85p.
9. U.A. Madaminov, O.K. Ataboyev, D.R. Kodirov, M.N. Jumaniyazov. Java dasturlash muhitida shart operatorlari (if, switch case). oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. volume 2 | issue 5. 2022/5. 1203-1208 p.

## M-LEARNING TEXNOLOGIYASINING QO’LLANILISHI

*Davronbek Qodirov Rajabboy o‘g‘li*  
*TATU Nukus filali assistent o‘qituvchisi,*  
*To‘liboyeva Umida Gulmirza qizi*  
*TATU Nukus filali assistent o‘qituvchisi,*  
*Tohirjonova Shahzoda Oybekjon qizi,*  
*TATU Nukus filali talabasi*  
*Tursunboyeva Mahbuba O‘razboy qizi,*  
*TATU Nukus filali talabasi*

